



Tadqiqot.uz

**ЎЗБЕКИСТОН
ОЛИМЛАРИ ВА
ЁШЛАРИНИНГ
ИННОВАЦИОН
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ТАДҚИҚОТЛАРИ
МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

2021

- » Хуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидағи изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

31 DEKABR
№35

CONFERENCE.uz



**“ЎЗБЕКИСТОН ОЛИМЛАРИ ВА
ЁШЛАРИНИНГ ИННОВАЦИОН
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАРИ”
3-ҚИСМ**

**«ИННОВАЦИОННЫЕ НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
УЧЕНЫХ И МОЛОДЕЖИ УЗБЕКИСТАНА»
ЧАСТЬ-3**

**«INNOVATIVE SCIENTIFIC AND PRACTICAL
RESEARCH OF SCIENTISTS AND YOUTH OF
UZBEKISTAN»
PART-3**

ТОШКЕНТ-2021



УУК 001 (062)
КБК 72я43

“Ўзбекистон олимлари ва ёшларининг инновацион илмий-амалий тадқиқотлари” [Тошкент; 2021]

“Ўзбекистон олимлари ва ёшларининг инновацион илмий-амалий тадқиқотлари” мавзусидаги республика 35-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 декабрь 2021 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2021. - 40 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Узбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағищланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илгор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

5.Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шохида Юсуповна (Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети)

6.Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобоҳонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Мусиқа ва ҳаёт

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулdir.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

ТАРИХ САҲИФАЛАРИДАГИ ИЗЛANIШЛАР

1. Очилова Шоира Сайфиевна «ОДЕЖДА» И ЕЕ РОЛЬ В ИСТОРИИ СТАНОВЛЕНИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО ОБЩЕСТВА	7
2. Опаев Б. ҚОРАҚАЛПОҚ ФОЛЬКЛОРИДА ҚОЗИЛАР СУДИННИГ ТАСВИРЛАНИШИ ВА УНИНГ ЎРГАНИЛИШИ	9
3. Равшан Турсунов БУХОРО АМИРЛИГИНИНГ СУВ МАНБАЛАРИ ТАРИХИДАН (XIX АСРНИНГ ЎРТАЛАРИ – XX АСР БОШИ)	12
4. Alimova Firuza Xolmadjonovna TARIX DARSLARIDA YIL, SANA VA TARIXIY VOQEALARNI ESDA SAQLASHNING AHAMIYATI	14
5. Avezova Sohiba Abdisharipovna, Kutliyeva Karima Xo'jamurot qizi ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR – BUYUK TARIXIY SHAXS	16
6. Babajanov Davlatiyor, Muxammedsharibboy o'g'li, Karimova Adolat Shuxratovna AMIR TEMURNING HARBIY MAHORATI HAQIDA	19
7. Eshanov Sohibxon Mutallibxonovich, Nabiyeva Shoira Abdumannon qizi BUYUK MUTAFAKKIRLARIMIZ ILMIY MEROSINING BARKAMOL AVLODNI TARBIYALASHDAGI AHAMIYATI	22
8. B.Meliqulov AMIR TEMURNING DAVLATCHILIK VA BOSHQARUV TIZIMI SOHASIDAGI ISLOHOTLARI	24
9. Raxmanov Polvonnazir Sadullayevich, Xusainov Zufar Odamboy o'g'li TARIX DARSLARIDA O'QUVCHILARNI GURUHLARGA BO'LIB ISHLASHNING AFZALLIKLARI	26
10. Jumaniyozov Jorabek, Matrizayev Murodjon TARIX FANINI O'QITISHDA ILMIY PEDAGOGIKANING O'RNI	28
11. Ashurova Marhabo Sobirovna AMIR TEMUR - MARKAZLASHGAN DAVLAT ASOSCHISI	30
12. Ro'ziyeva Komila Maxsutovna BUXORO XONLIGINI TASHKIL TOPISHI	31
13. Ibodullayeva Shaxnoza Fazliddinovna TARIX DARSLARIDA ILG'OR TA'LIMNING AHAMIYATI	32
14. Qurbonboyeva Zaynura FLORIO BENEVENI ELCHILIGI TO'G'RISIDA MANBALAR	34
15. Saydrahmonova Matluba Mavlyanovna TARIX DARSLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA «MINI-LEKSIYA» METODIDAN FOYDALANISH	36
16. Saydrahmonova Matluba Mavlyanovna TARIX DARSLARIDA INTERAKTIV TA'LIM METODLARIDAN FOYDALANISH	38



ТАРИХ САҲИФАЛАРИДАГИ ИЗЛАНИШЛАР

«ОДЕЖДА» И ЕЕ РОЛЬ В ИСТОРИИ СТАНОВЛЕНИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО ОБЩЕСТВА

Очилова Шоира Сайфиевна

Кандидат исторических наук, Доцент кафедры

Гуманитарные науки и информационные технологии

Самаркандский государственный институт
иностранных языков. Гафурова Фарида Раджабовна

учитель школы

тел.+998904602177

Аннотация: В статье изучаются особенности и разновидности понятия одежды и их значение в жизни человека. Классифицируется понятие «одежда»

Еще на заре человечества, одежда неизменно сопутствует человеку. Ношение одежды является исключительно человеческой характеристикой и является особенностью большинства человеческих обществ. Неизвестно, когда люди начали носить одежду, но антропологи считают, что шкуры животных и растительность были использованы как защита от холода, тепла и дождя, особенно когда люди мигрировали в новый климат.

По материалу, форме и покрою одежды можно судить об образе жизни человека, о климатических условиях, в которых он живет, о его классовой и сословной принадлежности, о культурном уровне и уровне его материального благосостояния. Значит, можно сказать, что многие стороны материальной и социальной жизни общества находят свое отражение в одежде.

Одежда сыграла важную роль в истории человечества, Сохранившиеся одежды показывают, какие материалы были доступны в разных цивилизациях в разное время и какие технологии были использованы для их создания.

Таким образом под понятием одежда понимают —совокупность предметов (из ткани, меха и т. п.), которыми покрывают, облекают тело, поверх белья;

платье и выполняющие утилитарные и эстетические функции 1.

Одежда предохраняет тело человека от негативного влияния окружающей среды и выполняет эстетические функции — создает образ человека, демонстрирует его социальный статус. Одежда может быть изготовлена из ткани, вязаного полотна, кожи, меха и других материалов; может дополняться украшениями и аксессуарами.

Выделяют летнюю одежду, зимнюю, демисезонную и всесезонная. По половозрастным признакам одежду делят на подгруппы: мужская, женская и детская. Детская делится на: одежды для новорожденных, ясельных детей, дошкольная, младше школьная, старше школьная и подростковая группа.

Различают верхняя одежда, нижняя одежда, повседневная одежда, рабочая одежда, специальная одежда

Принято также называть одеждой специальное покрытие проезжей части дороги, улицы, а также облицовка зданий, сооружений. а также имеются названия каменная одежда дороги, дорожная одежда, асфальтовая одежда. гудроновая одежда, производственная одежда. форменная одежда 2. Одежда специальная это средство индивидуальной защиты, предназначенное для защиты от вредных и опасных факторов для здоровья сотрудника на рабочем месте. Женская одежда — одежда, которую носят лица женского пола. Она имела различный характер в разные исторические периоды и имеет значительное разнообразие видов и функциональных стилей.

1. Словарь русского языка: В 4-х т. / РАН, Институт лингвистических исследований; Под ред. А. П. Евгеньевой. — 4-е изд., М.: Рус. яз.; Полиграф ресурсы, 1999; (электронная



версия): Фундаментальная электронная библиотека

2. «Толковый словарь русского языка» под редакцией Д. Н. Ушакова (1935-1940); (электронная версия): Фундаментальная электронная библиотека

Одежда служит нескольким целям, и каждый предмет одежды может сочетать в себе функциональность и декоративность, которая в современной культуре зачастую выше у женской одежды, чем у мужской. Одежда может служить и подбираться для защиты ее носителей от неблагоприятных внешних воздействий.

Нижняя одежда (нижнее бельё, исподнее) — одежда, надеваемая непосредственно на тело человека и предназначенная для создания благоприятных гигиенических условий.

Ассоциации к слову «одежда, вещь, ряса, дырки, имидж, новая.

Синонимы к слову «одежда», одеяние, туника, хламида, накидка, сари

Одежда бывает, сменная, штатская, поношенная, мешковатая, неброская

Таким образом, можно заключить, что в истории человечества одежда являлась неотъемлемой частью человеческого общества. От одежды зависело само существование человека. Этот вывод подтверждается историческими фактами, так как в древнейшее время с наступлением холодов люди стали использовать для согревания своего тела шкуры животных. С развитием человеческого общества одежда выполняющая функции защиты тела от холода приобретают все более разновидные функции, что рассматриваются в других исследованиях данной проблемы.

Литература

1. Абдуллаева Т.А., Хасанова С.А. Одежда узбеков (XIX-начало XX в.) Ташкент: Фан, 1978. 115 стр
2. Ундерова Л.В. Узбекская народная одежда конца XIX-XX вв.-Ташкент: Фан, 1994. г.



ҚОРАҚАЛПОҚ ФОЛЬКЛОРИДА ҚОЗИЛАР СУДИНИНГ ТАСВИРЛАНИШИ ВА УНИНГ ЎРГАНИЛИШИ.

Ораев Б.

Қорақалпок гуманитар фанлар
илмий-тадқиқот институти,

Ф.И.О. Ораев Baymurat Abdreshitovich

Эл. Почта: oraev@inbox.ru

Тел.: +998 992441822

Аннотация: Мазкур илмий мақолада муаллиф асосан қорақалпок халқ фольклорига оид манбаларини қуллай утириб, қорақалпок дастурий жамиятидаги қози судларининг тарихини ёритиб беришга харакат қилинган. Илмий ишда халқнинг ижтимоий холати қози судларининг фаолияти билан боғлиқ бўлган контекстда акс эттирилган. Шунингдек, муаллиф фольклор (қўшиқлар, ривоят, эртак, мақоллар) ва тарихий маълумотларнинг таҳлил қилиниши асосида, муаллиф қозилар судининг қорақалпок жамиятидаги ўрни қандай бўлганлигини ошиб беришга харакат қилган. Мақолада архив материалларида кам учрайдиган қизиқарли фрагментлар келтирилган. Муаллиф ўзининг дола ёзувларидағи материаллардан хам фойдаланган.

Калит сўзлар: Қозилар, фольклор, қорақалпок шоирлари, мақоллар, эртаклар, ривоятлар, шариат суди

Халқнинг урф-одатлари, миллий анъаналари мақол, қўшиқ, эртак, достон, ривоятлар ва бошқа жанрлардаги намуналарда ифодасини топади. Шунинг учун ҳам халқ оғзаки ижодини миллий қадриятлар деб атайди. Халқ оғзаки ижоди илмда фольклор деб юритилади. Бу атамани 1846 йилда инглиз олими Уильям Томс таклиф қилган бўлиб, унинг маъноси “халқ донолиги” деган тушунчадан иборат[1:23].

XX аср 30-йилларидан бошлаб Қорақалпок фольклоршунос олимлари Н. Даўқараев, Қ. Айимбетов, О. Кожуров, С. Маўленов, Ш. Ҳожаниязовлар, кейинчалик Қ. Мақсетов С. Баҳадирова, Қ. Байниязов ҳам таги бошқалар тамонидан қорақалпок оғизаки адобиёти тўплана бошлади. Ўлар халқнинг орасида юриб дастонлар, ривоятлар, эртаклар, халқ қўшиқлари, нақл-мақолларни ёзиб олди. Ҳозирги кунда ўлар Ўзбекистон Фанлар Академияси Қорақалпоғистон бўлимининг илмий кутубхонасида сақланмақда.

Ўтган асрнинг 70-80 йиллар оралиғида барча тўплangan фольклорлик материалларни мақсадга мувофиқ деб топилганларини “Қорақалпок фольклорининг кўп жилдлиги” деган ном билан нашрдан чиқарилди. Ўлар 20 жилдан иборат эди. Мустақиллик йилларида Ўзбекистон Фанлар Академияси Қорақалпоғистон бўлимининг илмий кутубхонасидаги қўлёзмалар фондида соқланаётган фольклорлик материаллар кўлами 100 жилдан кўп экани аниқланди ва 100 жилдлик фольклор тўплами нашрдан чиқди[2:3,4].

1962-йилда ilk бор қорақалпок халқ ривоятлари ва латифалари нашр этилди. Деярли барча нашр этилган ва нашр этилмаган халқ ривоятларида умуман қорақалпок халқининг ҳәёти, хусусан, қозилар суди буйича қимматли маълумотлар берилган. Ушбу материаллар асосида қорақалпок анаъвий жамиятидаги қозилар суди тарихини ранг-баранг тасвиrlаш мумкин[3:126].

Совет даврида диний уламолар қатори қозилар ҳам қувдаланиб, қатоғон қилинган. Қозилар суди 70 йил давомида ўрагиниш манн қилиниб, ўларга тегишли бўлган кўпчилик ҳўжжатлар йуқ қилинди. Шу пайтгача қорақалпок қози судлари тарихи маҳсус ўрганилмаган. Қозилар суди ҳақида факат архив ҳўжжатлари, фольклор асарлар, шу даврда яшаган шоирларнинг асарлари орқали бизнинг давримизга етиб келган. Бу ҳозирги кунда қозилар суди тарихин ўрганишда муаммоларни тўғдирмоқда. Халқ орасидан халқ оғизаки ижодини тўплаш бошланган пайтда ва Совет Иттифоқи қулашигача диншиллар ҳақида негатив баҳо берган қўшқлар, мақоллар, афсоналар тўпланиб нашр этилганки советлар бошқарган 70 йил давомида халқнинг онгига қозилар ҳақида ёқимсиз фикрлар сингдиришга уринди. “Тарихчи манбашунос олим ҳўжжатни урганиб у ҳўжжатнинг қайси соҳага тегишли эканлигини ҳисобга олиши кераклигини, унинг келиб чиқишини, унинг тузилиш тарихини урганиш керак” деб билдиради рус олими Д.С. Лихачев[4:430].



Халқимизнинг бебоҳа олтин меросини тўплаган фольклоршунос олимларимизнинг фидокорона меҳнатини ҳурмат қилган ҳолда ўларни қораламақчи эмасмиз. Шу қатағон сиёсат даврида меҳнат қилган олимларимиз ҳам шу давр сиёсатининг талабларини инобатга олишга мажбур булган. Рус тарихчиси Бестужев-Рюмин фикрича манбаларга бўлган қарашлар ўзгаргандан кейин, унга танқидий қарашлар вужудга келгандан кейин гина фан фоида бўлганлигини кўрсатиб беради[5:114].

1994-йили Қорақалпоғистонлик тарихчи М.Тлеумуратовнинг “Қорақалпоқ поэзияси тарихий манба” асари нашрдан чиқди. Бу асарда XVII-XIX асрларга оид қорақалпоқ халқ оғизаки ижоди ва жираӯ, шоирларнинг асарларининг тарихий моҳияти ёритилган. Қорақалпоқ халқининг тарихи, генеологияси фольклор асарлари орқали етиб келганлигини кўрсатади.

Қозилар суди ислом дини пайдо бўлган даврдан бошлаб мусулмон мамлакатларидағи айловчи ва ижро этувчи асосий давлат органига айланди. Ўларга халифалар ва ҳукмдорларнинг ноиби ҳисобланадиган қозилар бошчилик қилган. Қозилор ҳар хил даво ва жанжалларни шариат қонунларига асосланиб ҳал қилган.

Қозилар судининг адолатлиги ва адолатсизлиги ҳақида бир қатор қорақалпоқ халқ мақоллари борки ўлар буйича бир илмий мақола ёзса бўлади. Қорақалпоқнинг бази мақолларида қозиларга ишончсизлик билан қарашса ҳам базилари да қозиларнинг жамиятдаги ўрни муҳимлиги айтилганини кўрамиз. “Давогаринг қози бўлса, додингни алпоҳ берсин”, “Қозига борсанг қўлларинг бўш бормасин, Бирар нима олиб бор. Олиб борсанг бирданига қарайди” деган мақолларида ичончсизлик ўз ифодасин топган. “Қозисиз эл бўлса, Бирин-бири қўймайди, Қозили эл бўлса, Бирин-бири ҳимоялайди” мақолида шариат судининг жамиятдаги ўрнини ижобий баҳолайди. Ҳозирги қунимизда ҳам суд ва бошқа орган ҳодимларига фуқароларда кўз-қараш ижобий бўлмаса ҳам ўларсиз давлатта, халқ орасида тартиб ва тинчликни сақлаш мумкин эмаслигини биламиз.

Жиноятларни очиш ва уларга тайинланадиган жазо ҳақида бир қатор мақоллар бор. “Гувоҳли жиноятни гувоҳ топади, гувоҳсиз жиноятни шубҳа топади”, “Угрини ўғри бўлгани учун урмайди, уғрилик қилгани учун уради”, “Адолатсиз қози, шубҳа билан айбни буйнингга қуяди ва жазо тайинлайди”, “Жазоланган ўрининг бир бети яра....”[6:222] каби мақолларида жиноий ишни очиш ва берилган жазо акс этади.

Қорақалпоқ халқ ривоятларида қозилар, шариат суди ва ўнинг адолатлик масалалари ҳам сўз этилади. Ривоятларда халқнинг адолатта эришиш, тенглик асосланган жамият қуриш буйича орзулари тасвирланган. Чунингдек халқнинг урф-одатлари, қонунчилиги тасвирланган ривоятлар ҳам бор. Қуида чундай ривоятларидан бирини келтирамиз.

Амударёнинг чап қирғогидаги Қанғлиқўлда 60 уйлик қипчоқлар яшаган. Ўлар ёп қозиб сув олиб келиб дехқончилик этган. Чунинг учун ўлар яшайдиган қишлоқ «Қипчоқён» деб номланган. Бу эрлар шу даврда Хива хонлигига қарам бўлган. Қипчоқён қишлоғи да қипчоқнинг жағалтай уруғидан Бабажан қўтирилган. Ўзининг бўлиб, ўзининг кирқ йигитлик навкари бўлган. Ўларнинг орасида қўшиқчи, сазанда, ошпаз йигитлари бўлиб, борган жойида зияпат уюштирган. Бабажан тўрт аёлга уйланган. Иккинчи аёлидан қиз тўғилган. Ўнга Санем деб исм қўйган. Санемни Жўмартбайнинг ўғли Тилегенга “аклай” адаштирган (Қизни тўғилган файтида йигитга унаштиришни “аклай” адаштириш деган). Санем қиз балоғатга этганнан кейин Амударёнинг ўнг қирғогидаги “Уйчи” қишлоғида яшайдиган тоғаси кидириб бориб юрганида Амет Жалатай деган йигит билан тонишиб, уни яхши қўриб қолади. Берилган ваъда буйича Бабажан қўтирилган қизи Санемни Жўмартбайнинг ўғлига бериб, тўй берадиган вақт ҳам яқинлайди. Лекин, Санем ўзининг яхши қўрган йигити Амет Жалатай билан қочиб кетади. Санем билан Амет тунда юриб, кундуз чукурда устига қонгбокни ёпиб “Мамий” доласида яшириниб ётади. Ўларни Бабажан қўтирилган қирқ йигити билан қанча изламасин топа олмайди.

Орадан вақтлар ўтиб Хива шаҳрида мадрасада ўқиб юрган «Қипчоқён» қишлоғининг йигитлари “Сизнинг қизингиз Санем Хивада эркакларнинг кийимида юрибди” деб Бабажанга ойтиб келади. Бабажан Хивадан Санем билан Аметни тўтиб олиб, қишлоғига олиб келади. Атамурат исмли қози (шариат суди) иккаласини гулмийиқли арбанинг икки ғилдирагига яланғаш бойлаб қўйиш жазосини беради.

Бабажан қозининг берган жазосига қониқмай айборларни Хивага олиб боради. Сабаби, қозининг ўзи ўлим жазосини беришга ҳақили бўлмаган. Бабажан бўлса Амет Жалатайга



ўлим жазосига юбориб қизини тирик олиб қолмоқчи бўлади. Ўлим жазосини фақат Хива хони бера оларди. Бабажан хон саройига кириш учун навбатини кўтиб ўтирганда сарой хизматкаридан бири билан гаплашиб қизини тирик олиб қолиш йулини сўрайди. Қизин тирик олиб қолиш учун берган ёрдам берса пул вада қиласи. Сарой хизматкари хоннинг олдига кириб Бабажаннинг ҳолатини тушинтиради. Хон хизматкарига ўзинг бир иложини топа олсанг қизни тирик олиб қолишга розиман дейди.

Сарой хизматкари қизга оддий топишмоқ бериб ўнга берган жавобига қараб қизни тирик олиб қолмоқчи бўлади. “Сифирдан тўғилган бўзок бир ёшга тўлмаган бўлса бўзок бўлади. Бир ёшга тўлса нима бўлади” деб сўрайди. Агар қиз тўғри жавоб берса қиз гапидан тонди деб тирик олиб қолмоқчи бўлади. Лекин зийрак қиз буни сезиб жавоб бермайди. Натижада хон иккаласини ўлим жазосига буюради. Белгиланган жазо бажариладиган куни сарой хизматкари аввал Аметни ўлдириб кейин қизни тирик олиб қолмоқчи бўлади. Лекин Санем биринчи мени ўлдиринг, Амет менинг ўлимимни кўриб кетсин деб туриб олади. Оқибатида Санем биринчи, кейин Амет ўлдирилади.

Бабажан қизи ўлдирилганинг кейин элга келиб оламга чидай олмай З ойгача кўкрагини ном жойга бериб ётади. “Санем, Санем дея ўтди ўмирим, Энди Санем дейишга ҳолим колмади” деб Бабажан қорауда ётади экан. Куп вақт ўтмай касалланиб ўлади[7:1,2].

Чунингдек, «Оқпўлатнинг ер давоси», «Қанлиқўл», «Тошбоқага айланган савдагор», «Сулаймон пайғамбар», «Асан бий», «Букиш бий» в.б афсоналарда, «Бой ва хонни мағлуб этган чўпон», «Хунарли бола», «Бой билан камбағалнинг қизи», «Арзни адолатли ҳал қилган Апаши» номли эртакларида қозилар хақида сўз этилади.

Қорақалпоқларда XVIII асрдагача ёзма адабиёт бўлмаган ва отадан ўғлига оғизаки ўтиб, бизнинг давримизгача етиб келган. Қорақалпоқ халқ-оғизаки ижоди ва шоир-жираўларнинг ёзма асарларида қозилар хақида қизиқарли маълумотлар мавжуд. Қорақалпоқ адабиётида биринчи марта қози атамаси Жийен жираў асарларида сўз этилади. Жийен жираў XVIII асрда яшаган ва Бухоро қорақалпоқлари орасида бўлган. Ўнинг айтишича, Бухоро қорақалпоқларининг ўз қозилари бўлган. Бухоро қорақалпоқлари орасида Алим қози, Қарағазибийлар каби номдор қозилар бўлишган.

Қорақалпоқлар фақат Хивада эмас Бухоро, Кўхна Урганш каби катта шаҳарлардаги мадрасаларда ҳам ўқиган. Чунингдек қорақалпоқларнинг Қарақумэшон, Қумузяқэшон, Тасмадраса каби мадрасалари бўлиб, ўларда ҳам диний билимлар билан илмий таълим ҳам берилган.

Қозиларнинг адилсизлигини танқид қилиш, халқнинг tenglik ҳақида орзу-армонлари халқ оғизаки ижодида намоён бўлади. Бу мавзу чуқур ўрганишни, халқ орасига илмий экспедициялар уюштириб фольклорлик асарларни тўплашни тақозо этади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Симс, Мартха, Степхенс, Мартине. Ливинг Фолклоре. Логан, Утаҳ: Утаҳ Стате Университий Пресс, 2005. 344 б.
2. Қарақалпақ фолклори. 1-том. Нукус: Қарақалпақстан, 2007. 756 б.
3. Опаев Б.А. Отражение казийских судов в каракалпакских народных легендах. Вестник ККО АН РУз, 2020, №1. стр. 126-130.
4. Лихачев Д.С. “Единичный исторический факт” в художественное обобщение в русских былинах. Сборник статей “Славяне и Русь” Москва. 1966. Стр 429-436.
5. Киреева Б.А. “Русская история К.Н. Бестужева-Рюмина. Размышления об истории как науке” .111-121.№1 Москва. 1992.
6. Қарақалпақ фолклори-нақыл-мақаллар. Ташкент: Янги китоб. 256 б. 2019.
7. Муалифнинг дала ёзувлари. 26. 2021.



БУХОРО АМИРЛИГИНИНГ СУВ МАНБАЛАРИ ТАРИХИДАН (XIX АСРНИНГ ЎРТАЛАРИ – XX АСР БОШИ)

Равшан Турсунов,
Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон
Миллий университети доценти

Аннотация: Мақолада XIX асрнинг ўрталари ва XX аср бошида Бухоро амирлигидаги сув ресурслари ва улардан фойдаланиш жараёнида юзага келган муаммолар муҳим манбалар асосида тадқиқ қилинган.

Калит сўзлар: экология, сув ресурслари, дарё, ариқ, қишлоқ хўжалиги, дехқончилик, сув муаммолари.

Ўрта Осиёдаги хонликлар ичida Бухоро амирлиги алоҳида мавқега эга бўлиб, худудий жиҳатдан 2 қисмга яъни, гарбий қисм – паст-текислик, шарқий қисм – тоғли худудларга ажralади. Бухоро амирлигининг гарбий қисми ҳам дашт текисликларига бой бўлиб Зарафшон дарёси суви билан суғорилган. Бу ерлар амирликнинг иқтисодий эҳтиёжларини таъминлашга хизмат қилган. Бухоро худудида Зарафшон дарёсининг улуши 214 верстни ташкил этган¹. Зарафшондан Бухоро тарафга қараб узунлиги 1000 верстни ташкил қиладиган 43 та ўқ ариқ тортилган. Бу асосий ариқлардан ҳар тарафга мингга яқин иккинчи даражали ариқлар ўтган. Кейин улар қишлоқлар ва майдонларнинг айрим қисмларини сув билан таъминлайдиган каналларга айланган.

Бухоро амирлигидаги маданий ўсимликлар етиштириладиган ерлар Амударё, унинг тармоқлари ва бошқа сув тизимларидан суғорилади. Амударё бўйларида суғориш ишлари сув қўтарилиганда, тор йўлакли, катта-кичик ариқлар орқали амалга оширилган. Экин майдонларига янги ва эски ариқ эгатлари тортилган бўлиб, бу тармоқ, айниқса, Чоржўй ва Қорақуш ўртасида кенг тарқалган. Дарёга туташ ер майдонлари қисми тупроқ ўтказувчанлиги эвазига дарёдан сизиб чиқаётган ва горизонтал йўналишда узоқ масофага оқиб борадиган сувлардан озиқланган.

Нарпай – Бухоронинг энг асосий ариқларидан бири бўлиб, Каттақўргон шахри яқинидан тортилган. Ҳарбий-топографик бўлимнинг маълумотига кўра, Зарафшон сувлари Бухоронинг 340.848 десятина 800 квадрат сажен майдонига сув етказиб берган. Умуман олгандан, Зарафшон суви истеъмолининг учдан бир қисми Бухоро амирлиги ҳисобига тўғри келган².

Зарафшон сувлари билан суғориладиган ерлар Бухоро хонлигининг энг маданий, ҳосилдор ва аҳолиси зич қисми ҳисобланган. Дарёнинг бошланиш сувини Бухоро ўзлаштириб олгани боис, Зарафшон Амударёгача етиб бора олмаган ва 30 верстча қолганида ботқоқ, кўлмак ва майда кўллар ёнида тугаган³.

Қашқадарё дарёси Гарбий Бухоро худудидаги асосий дарёлардан бири бўлиб, Ғузор дарёси унга келиб қуйилган. Қашқадарё Ҳисор тог тизмаларидан бошланиб, Шаҳрисабз ва Қарши бекликларидан иборат улкан воҳани сув билан таъминлаган. Бундан ташқари, Ҳисор тоғларининг гарбидан бошланувчи кичик дарёлар ҳам бўлиб, улар Кармана ва Қарши оралиғида жойлашган тоғли худудлар ва чўллар орасидаги кичик майдонларни сув билан таъминлаб турган.

Амирликнинг гарбий худуди тўлиқ ўзлаштирилмаган бўлиб, унинг анча катта худудлари қумли ва шўрхок чўллардан иборат бўлган. Маълумотларга кўра, Зарафшон водийсида 70 квадрат мил. ва Қашқадарё водийсида 50 квадрат мил. майдонлар ўтроқ ҳаёт учун ярокли ҳисобланган⁴.

Шарқий Бухоро худуди қудратли тог тизмаларидан иборат бўлиб, улар орасида Ҳисор тог тизмалари энг асосийси ҳисобланган. Ҳисор тог тизмалари Олой тог тизмаларининг давоми бўлиб, Зарафшон ва Қашқадарё ҳавзаларини Амударё ҳавзасидан ажратиб турган. Пётр Великий тог тизмаси (7000 фут) ҳисобланиб, у Сурхоб дарёсининг чап қирғоқи бўйлаб

¹ Гейер И.И. Туркестан. – Ташкент. 1909. – С.180.

² Шавров Н. Водное хозяйство Туркестана и Закаспийской области. С.-Петербург. 1911. – С.29.

³ Шавров Н. Водное хозяйство Туркестана и Закаспийской области. С.-Петербург. 1911. – С.29.

⁴ Гейер И.И. Туркестан. – Ташкент. 1909. – С.180.



чўзилган¹. Бухоро хонлигининг ушбу қисмидаги йирик дарёларга қўйидагилари киради: Панж дарёси билан қўшилиб Амударёни ҳосил қилувчи Вахш дарёси, Коғирниғон, Сурхондарё, иккинчи даражали дарёларга Шеробод дарёси ва Қизилсув дарёлари киради. Шеробод дарёси тузли сувларни оқизиб, унинг ирмоқлари тоғлардан минерал туз моддаларини ювиб чиқарган.

Бухоро амирлигига дехқончилик халқ фаровонлигининг асоси ҳисобланган. Дехқончилик марказлари Зарафшон, Қашқадарё ҳавзаларида жойлашган. Самарқанд вилоятининг экин майдонлари руслар томонидан ўзлаштирилиб кенгайтирилиши Бухоро хонлиги иқтисодиётiga сезиларли таъсир кўрсатган. Тадқиқотчи И.Гейернинг таъкидлашича, Бухоро руслар Самарқандни босиб олишига қадар Зарафшон дарёсининг яккахон тўлақонли хўжайини бўлиб, унинг сувларидан бемалол фойдаланиб келган, руслар келгандан сўнг, улар Самарқанд вилояти эҳтиёжларидан келиб чиқиб сув тақсимотини амалга ошира бошлашган.

Натижада Бухоронинг Зарафшондан сұғориладиган ҳудудларининг ҳамма жойларига сув манбалари етмай, аҳоли алмашлаб экиш усулларидан фойдаланишига тўғри келган. И.Гейер Зарафшон дарёсининг юқори оқими қисмидаги ҳудудларда сувдан фойдаланиш тартибга солинса, дехқончилик ҳудудлари янада кенгайиши мумкинлигини, қолаверса, буни Бухоронинг сариқ тупроқли қатламларида минерал озуқа моддалари етарли даражада кўп бўлганлиги билан изоҳлашга ҳаракат қиласди².

Тарихчи олим А.Муҳаммаджонов тадқиқотида Россия империяси томонидан Самарқанд эгаллангандан кейин бу ерда Зарафшон округи ташкил этилганлигини, Зарафшон дарёсининг бошланиши қисми генерал-губернаторлик назоратига ўтганлигини, бу эса Бухорони сувга бўлган эҳтиёжларини таъминлаш губернаторликнинг буйруғи асосида амалга оширилишини англатишини, амирлик сув тақсимоти бўйича Зарафшон округига тобелигини кўрсатиб ўтади³.

Бухоронинг сув масаласида Туркистон генерал-губернаторлигига қарам бўлиб қолиши халқ билан бирга бир қатор миллат фидойиларини қаттиқ ташвишга солади. Маърифатпарвар А.Дониш бундан кейин Самарқанддан келадиган сув масаласида хотиржам ўтириб бўлмаслигини айтиб, Бухорога Амударёдан сув чиқариш чораларини кўриш мақсадида амирга ўз лойиҳаси билан мурожаат қиласди. Бирок бу мурожаат амирлик томонидан қаноатлантирилмасдан, аксинча, амирлик 1868 йилда Туркистон генерал-губернатори билан тузилган сулҳ шартномасига кўра, Самарқандни қайтариб олиш йўлида ҳаракат қиласди, аммо губернаторлик айнан Самарқанд масаласи билан амирликни ўзига қарам қилиб туришни мақсад қилганлиги боис Самарқанд қайтариб берилмайди. Зарафшон округи бошқарув тизимиға эга бўлганлиги учун эндиликда сув масаласида Бухоро амирлиги унга расмий мурожаат билан чиқишига тўғри келган.

Умуман олганда, Туркистон генерал-губернаторлиги узоқни кўзлаган мақсади йўлида Бухоро амирлигига сув масаласида жуда эҳтиёткорлик йўлини тутиб, Бухорони имкон қадар сув билан таъминлашга ҳаракат қиласа-да, сув тақсимотида йўл кўйган камчиликлари яъни, дехқонларга сув зарур вақтида берилмасдан, аксинча, кераксиз вақтида сувни очиб юборилиши натижасида Бухоронинг табиий муҳити ва экологиясига жиддий зарар етказилган.

Бухороликлар жуда миришкор дехқон сифатида ерга ишлов беришни қойиллатса-ларда, сувдан мутлако ўзбошимчалик билан фойдаланишади ва исроф жуда катта бўлган. Бунинг оқибатида, сув катта майдонларни эгаллаб, ботқоқлар ҳосил қиласди, бу эса аҳоли орасида безгак касаллигини кенг тарқалишига сабаб бўлган.

Хулоса қилиб шуни айтиш мумкинки, Бухоро амирлиги ҳудудларида сув ва унинг етишмаслиги азалдан мавжуд бўлиб, Россия империя таъсирига тушмасдан олдин сув ресурслари билан боғлиқ муаммолар унинг ички ҳудудлари ўртасида бўлган бўлса, Зарафшон округи ташкил этилганидан сўнг, Бухорога сувни зарур вақтларда берилмаслиги оқибатида қишлоқ хўжалиги танг ахволга келиб колади. Сув танқислиги натижасида экологик муаммолар юзага келган ҳудудлардан аҳоли бошқа жойларга кўчиб кетишга мажбур бўлган.

¹ Гейер И.И. Туркестан. – Ташкент. 1909. – С.181.

² Гейер И.И. Туркестан. – Ташкент. 1909. – С.192.

³ Муҳаммаджонов А.Р. Кўйи Зарафшон водийисининг сұғорилиш тарихи (Қадимги даврдан то XX аср бошларигача). – Тошкент, Фан. 1972. – Б.189-197.



TARIX DARSLARIDA YIL, SANA VA TARIXIY VOQEALARNI ESDA SAQLASHNING AHAMIYATI

Alimova Firuza Xolmadjonovna

Namangan viloyati Pop tumani
2-som maktab tarix fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarix darslarida o'quvchilarning yil, sanalar va tarixiy voqealarni esda saqlab qolishda o'zga xos yondashuv va ularning ahamiyati to'g'risida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: yil va sanalar, o'ziga xos yondashuv, ilmiy adabiyotlar, mantiqiy fikrlash, o'quvchi, o'qituvchi, matematik formula.

Tarixdan ma'lumki, jang maydonida qo'shin soni, qurollar turi, qo'shin tarkibi jangni hal qilib berolmagan, albatta g'alaba uchun salohiyatlari qo'mondon va uning tanlagan jang metodi jangni o'z foydasiga hal qilishida juda ahamiyatli sanalagan. Jumladan, qo'mondan dushman qo'shini obdon o'rganib, ularning barcha jihatlarini ko'zdan qochirmsandan, hatto nozik tomonlariga e'tibor bergen holda tanlagan yo'li jangchilarni ruhlantirgan, qo'shin oz bo'lsa ham, ko'p sonli qo'shin ustidan g'alaba qozongan.

Tarix fani o'qituvchisi sifatida shuni aytishim lozimki, tarix fani o'quvchilar uchun geografiya fani kabi atrofda sodir bo'layotgan tabiat bilan bog'liq jarayon yoki matematika fanidagidek qandaydir formuladan o'quvchi ko'z oldida natijaga erishilmaydi. Shunday ekan, jang maydonida asosiy g'alabani qo'mondon ta'minlagani kabi, tarix darslarida o'qituvchi tomonidan to'g'ri tanlangan innovatsion metod kutilgan samaraga erishish garovidir. "... Jarayon mahorat bilan boshqarilsa, insonning o'zligini anglash uchun negiz yaratiladi, beriladigan bilimlar esa aosisy vositalar hisoblanadi". Pedagogik texnologiya shaxsga ta'sir ko'rsatish san'ati ma'nosoni anglatar ekan, "... o'qituvchi darsning ijodkori, u tayyor texnologiyalarning oddiy ijrochisiga aylanmasligi, pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda o'z yo'lini izlashi va zakovotini namoyon etib, faoliyatga kirishishi lozim". Negaki, o'qituvchi har bir mavzuni yoritish va mustahkamlashda, uyga vazifani so'rashda sind o'quvchilarning fiziologik rivojlanish yoshi, imkoniyatlari va psixologik holati kabi jihatlarini e'tiborga olib tanlashi bilan, o'quvchilarni tarix faniga qizqishini oshirish va esda saqlab qolish qobiliyatlarini shakllantish mumkin.

Hozirda zamonaliv darsga qo'yilayotgan talab – barcha o'quvchilarning mavzuni o'zlashtirishiga erishishdir. O'qituvchining bilim salohiyati hamda to'g'ri foydalangan metodi dars mazmunining ijobiliyigini ta'minlaydi. Barcha fanlar bo'yicha yaratilgan ilmiy adabiyotlar, ta'lim metodlari, ko'rgazmali qurollar, multimedia mahsulotlari bilan imkon qadar ta'minlangan. Tarix darslari o'quvchining keng fikrlash mantiqiy tahlil yurgizish, o'z fikrini asoslab berish, esda saqlab qolish kabi jihatlarini tarbiyalashga qaratilganligini e'tiborga olib, dars davomida maqbul metodlar yuqoridaq talablarni shakllanishiga asos bo'ladi. Bilamizki, tarix fani o'zida ma'lumot va yil sanlarining ko'pligi bilan ahamiyatli, biz o'quvchilarni bu murakkablikdan olib chiqish uchun ularga qulay usullardan foydalanishni tavsiya qilishimiz mumkin.

Masalan, 7 sinf o'zbekiston tarixi fanida Abu Nasr Farobiyning o'rgangan fanlari quyidagicha keltiriladi.

Abu Nasr Farobiyoziyat, mantiq, matematika, falsafa, falakiyat, tilshunoslik, tarbiyashunoslik, tabiatshunoslik, adabiyot kabi fanlarni chuqr o'zlashtirganligi keltirilgan.

Bu fanlarning barchasini eslab qolishning iloji kam, shunday ekan, o'quvchiga to'liq esda saqlab qolishi uchun quyidagi matematik formula kabi esda saqlatishga erishish mumkin:

$$R+F^2+T^3+M^2+A=160+70=$$

Abu Nasr Farobi

shaklida o'quvchiga tavsiya qilsak oldingi murakkablik holatidan chiqarib, ularga yoqadigan va ularga qiziqarli bo'lishi bilan birga esda saqlashlariga yordam beradi.

Bunda matematik formulaga o'xshash bu holatni yoyib chiqish o'quvchiga qiziqarli va asosiysi esda saqlashga qulay. Bu yerda R – rivoziyat, F2- falsafa, falakiyat, T3 – tilshinoslik, tarbiyashunoslik, tabiatshunoslik A – adabiyot=160 uning yozgan asarlar soni, 70 – bilgan tillarining soni.

10-sinf o'zbekiston tarixida Turkiston taraqqiyarvarlari tomonidan tashkil qilingan "Sho'roi Islomiya" partiyasida muhim rol o'ynagan shaxslar nomlari quyidagicha keltiriladi.

Munavvarqori Abdurashidxonov, Mahmudxo'ja Behbudi, Mustafо Cho'qayev, Ahamad Zaki



Validiy, Islom Sulton Shoaxmedov, Toshpo‘latbek Norbo‘tabekov kabilar⁴. Ushbu holatda bu ismlarni esda saqlash qiyin deb e‘tiborsiz o‘tishlarining oldini olish va osonlashtirishda quyidagicha belgilash kiritish mumkin.

M³AST= bunda M³ – Maunavvarqori Abdurashidxonov, Mustafao Cho‘qayev, Mahmudxo‘ja Behbudiy, A – Ahamad Zaki Validiy, S – Islom Sulton Shoahmedov, T – Toshpo‘latbek Norbo‘tabekov shaklida tavsija qilish mumkin.

O‘qutuvchi darsning mohirona boshqarib, sinfning barcha o‘quvchilari bilan birdek mavzularni bir – biriga bog‘lay olishi va tahlil qilishiga erishi uning katta yutug‘i hisoblanadi.

“...O‘tmishni o‘rganish sermahsul ish” degan edi yevropalik faylasuflardan biri. Ayni paytda yil va sanalarni esda saqlab qolish o‘quvchiga qiyinchilik tug‘dirishini hisobga olib, tegishli manbalar asosida yil va sanalarni esda saqlashda shu davr tarixi to‘g‘risidagi voqealarни ko‘z oldilarida gavdalantirishda va mantiqiy fikrlash bilan esda saqlab qolish imkoniyatini oshiradi. Masalan, 9-sinf O‘zbekiston tarixida “Xiva xonligining tugatilishi” mavzusida islohotchilarning rahnomosidan biri, mamlakat bosh vaziri Islomxo‘jani davlat mablag‘larini o‘zlashtirishda ayblab o‘ldirilganligi keltirilgan. Mavzuning shu rejasida 1910 – 1918 yil, 1913 yil, 1917 yil fevral, 1917 yil 5 aprel, 1917 yil 26 aprel, 1918 yil sanalari keltiriladi. Ushbu sanalarni esda saqlab qolishning eng afzal yo‘li shu davrni to‘liq ochib beradigan ilmiy manbalar ma’lumaotlariga o‘quvchini yo‘naltirishdadir. “...Xiva xoni Islomxo‘janing qatlidagi ishtirokini bekitib yuborish, bu sir oshkora bo‘imasligi uchun Asfandiyordan 200 ming rubl pul olinganligi qayd qilingan”. 1917 yil 5 aprel voqealarini aynan shu adabiyotning tegishli joyida shunday keltirilgan. “...men – Xiva xoni Said Asfandiyor Bahodirxon quyidagi hohishimni e’lon qilaman.

1. Men o‘z fuqorolarimga konstitutsiyaviy boshqaruvni shuning uchun berdimki, ular davlatni o‘z hohishlari, muqaddas shariat qonunlari va zamon talabi bilan umumxalq kengashi orqali saylangan va davlat ishlarini boshqarishga tayinlangan adolatparvar va loyiq kishilar boshqarsinlar...” Dasrlikdagi boshqa sanalar ham shunday qiziqarli ma’lumotlarni o‘qish va tahlil qilish bilan eslab mantiqiy fikrlash orqali aynan shu davr to‘g‘risidagi tushunchalar bilan sana va yillarni eslashda qiyinchiliklarni bartaraf qiladi.

Darsni tashkil qilishda davlat ta’lim standartlari asosida samara beradigan innovotsiyalar uyg‘unlashsagina yuksak bilimli, keng salohiyatlari, mantiqiy fikrlaydigan shaxslar, vatan ravnaqiga qanot bo‘ladigan yoshlar kamolga yetishishiga erishish mumkin.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. <http://fitrat.uz/farzandga-tu-ri-julni-kim-kursatadi/> (Farzandga to‘g‘ri yo‘lni kim ko‘rsatadi? Angren shahar «Obliq» jome masjidi imom xatibi Xusniddinxon Sharofxo‘jayev)
2. Yangi pedagogik texnologiya asoslari. A.Madrahimov, Tohirjon Sotliqov, Fayzulla Boynazarov. Falsafa va huquq institute nashriyoti. Toshkent - 2007 yil.
3. 7-sinf Obekiston tarixi darsligi. “Sharq” nashriyoti - Matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent-2017 yil. 95-bet.
4. 10 sınıf O‘zbekiston tarixi. Qahramon Rajabov, Akbar Zamonov. G’afur G’ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi Toshkent - 2017 yil. 8-bet.
5. 9 sınıf O‘zbekiston tarixi. Sobirjon Tillayev, Akbar Zamonov. ”Sharq” nashriyoti – matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent – 2019 yil. 50-bet.
6. Xorazmdagi ijtimoiy – siyosiy jarayonlar va harakatlar. Otamurod Qo‘shjonov, Ne’matjon Polvonov. “Abu matbuot – konsalt” MChJ. Toshkent - 2007. 214-bet.
7. Xorazmdagi ijtimoiy – siyosiy jarayonlar va harakatlar. Otamurod Qo‘shjonov, Ne’matjon Polvonov. “Abu matbuot – konsalt” MChJ. Toshkent - 2007. 288-bet.



ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR – BUYUK TARIXIY SHAXS

Avezova Sohiba Abdisharipovna

Xorazm. Urganch tumani

49 mакtab Tarix.fani o'qituvchisi

Tel: 99 966 93 63

Kutliyeva Karima Xo'jamurot qizi

Xorazm viloyati Urganch tuman

6-son mакtab Tarix fani o'qituvchisi

Tel: 99 564 54 93

Annotatsiya: Ushbu maqolada buyuk tarixiy shaxs Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti, uning yurtimiz va jaxon tarixida tutgan o'rni, ijodi haqida malumot berilgan.

Kalit so'z: Bobur, tarixchi, shoh, shoir, tarixiy shaxs, hukmdor, san'at, ijod.

Aslo`zbek farzandi Zahiriddin Muhammad Bobur Vatanimiz tarixidagi takrorlanmas siymolardan biridir. Bobur yetuk adib, buyuk tarixchi, adolatli podshoh, nazariyotchi adabiyotshunos, tilshunos, san`atshunos, etnograf, hayvonot va nabotot olamining bilimdoni sifatida ko`p qirrali faoliyat va ijod sohibi edi. Boburning hayot yo`li va ijodi haqida juda ko`p izlanishlar olib borilgan. Hozirgacha uning suratini sohir tabiat ijodkor tasviri yoki zabardast hukumdar tasvirini chizish haqida bahslashishadi, chunki u ma`naviy jihatdan ham, jismoniy jihatdan ham yetuk shaxs bo`lgan. Ijod ahli uning asarlaridagi tasvirlangan hol va tuyg`ularni chuqur o`rgangan sari, qalbi o`shancha tozalanib, kuch topadi va kenglik kayfiyatlariga to`ladi. Bobur shaxsiyatiga yaqinlashgan sari manmanlik, nosamimiylik ta`nadan shu qadar bezadi. Uning she`rlarida yurt va Vatanga muhabbat ezgu insoniy fazilatlar tarannumi, oliyanob tuyg`ular tasviri yetakchilik qiladi.

Ko`pdin berikim, yor-u diyorum, yo`qdur,

Bir lahma-yu, bir nafas qarorim yo`qdur.


Keldim bu sori o`z ixtiyorim birla,

Lekin borurimga ixtiyorim yo`qdur.

Biz “Zahiriddin Muhammad” uning ismi, “Bobur” adabiy taxallusi deb mulohaza yuritamiz. Aslida esa, Mirzo Olim Mushrivning “Ansob as-salotin fiy favorixiy xavoqin” (Sultonlar nasablari va xoqonlar tarixi) nomli asarida keltirilishicha Umar Shayx Mirzoning to`ng`ich o`g`liga bu ismni Xo`ja Ubaydulloh Ahror qo`ygan. Ism so`zlarining sharhiga kelsak: Zahiriy diniy Muhammad – Muhammad dinining tayanchi, posboni degani. Bobur – sher degani.

Bobur ismiga monand yashadi. Shariatpanoh hukumdar bo`lib, taxtni adolat bilan boshqardi. “Mubayyin” nomli asarida farzandlariga islom dini farz asoslarini o`tash masalalarini she`riy usulda qo`llanma sifatida yozadi.

Bobur, birinchi navbatda shoh Boburiylar sulolasining asoschisi. Boburiylar 332 yil Hindistonda hukumronlik qilgan. Bobur Hindistonda Temuriylarga xos ulug` bunyodkorlik an`analarini davom ettirdi: muhtasham qasrlar tiklash, ariq-kanallar qazish, bog`-rog`lar bunyod etish, adabiyot, ilm-fan rivojiga homiylik qilish, elni adolat bilan boshqarish singari fazilatlari bilan keyinchalik Hindiston xalqi tomonidan ijobiy baholandi. Javoharlal Neru: “Bobur dilbar shaxs, Uyg`onish davrining tipik hukmdori, mard va tadbirdor odam bo`lgan. Bobur o`ta madaniyatli va jozibali insonlar orasida eng yetuk insonlardan biri edi. U mazhabparastlik kabi cheklanishdan va mutaassiblikdan yiroq edi... Bobur san`atni, ayniqsa, adabiyotni sevardi”.



Bobur shaxsiyatidagi mardlik, adolatparvarlik, rostgo'ylik qattiqqo'llik uning o'z qo'shini bilan o'zidan anchagini ko'p va qudratli bo'lgan Ibrohim Lo'diy qo'shinini tor-mor keltirishi uning mohir sarkarda ekanligining isbotidir.

“Boburnoma” asarida adibning shaxsi, xarakteri, kishilarga munosabati borasidagi qarashlari o'z aksini topgan. Asardagi ma'lumotlardan Bobur o'z yaqinlari va qarindoshlarini qadriga yetuvchi, garchi xiyonatga uchrasada, yaxshilik bilan javob qaytaruvchi andishali inson sifatida ko'z oldimizda gavdalanadi.

Asarda Muhammad Husaynmirzo xiyonati xaqida shunday yozadi: “Muhammad Husaynmirzoni bunday xunuk va tuban harakatga qadam qo'ygani, bunday g`avg'o va fitna ishlarni qo'zg'agani uchun burda-burda qilsam o'rinnlik edi. Orada, har holda, qarindoshlik bor edi: mening tug`ishgan xolam Xo'p Nigorxonimdan o'g'il - qizlari bor edi. Bu huquqni eslab, Muhammad Husaynmirzoni ozod qildim... Shayboniyxon qoshida mendan g`iybat va shikoyatlar qilibdi. Oz fursat o'tmay Shayboniyxonning o'ziyoq uni o'ldirib, jazasiga yetkazdi”

Tu bat kunandayi xudro ba ro'zgor supor,
Ki ro'zgor turo chokarest kinaguzor
(Mazmuni: Sen o'zingga yomonlik qilganni hayot izmiga topshir. Bil: hayot qasoskor mulozimingdir.)

Bobur hayotda kutilmagan sinov va mashaqqatlarga duch keldi. U hayot zarbalarini juda erta yoshligidan ko'rdi. Shunga qaramay, uning asarlarida, shaxsiyatida hayotsevarlik, odamga va butun olamga mehr-muhabbat, chuqur samimiyyat o'z aksini topdi.

Beqaydmen – u xarobi siym ermasmen,
Ham mol – yig`ishtirur laim ermasmen.

Bu shoh Boburning hukmimi? Shoир Boburning gaplarimi? Yoki olim va mutafakkir Boburning e'trofimi? Buni ajratish mushkul. So'zimiz avvalida aytganimiz bahslar hali o'z yechimini topishi qiyin. Bobur asarlari orqali ham shoh, ham shoир, ham olim, ham oshiq, ayni paytda Vatan sog'inchida bag'ri yongan bir g`arib bo'lib so'zlashadi siz bilan. Hukmdor bo'lib hech qachon rasmiyatchilik va dimog`dorlikka yo'l q'oymagan, shoир bo'lib balandparvozlik va samimiysizlikka erk bermagan, ota, aka, do'st, rahnamo bo'lib hech kimning ishonchiga rahna solmagan shunday benazir shaxs necha asrlarda dunyoga kelishini unutmasligimiz lozim.

Xulosa o'rnida aytish lozimki, Bobur siyosini ta'lim muassasalarida o'qitishda Boburning bobokaloni Amir Temur singari qudratli va adolatlilik hukmdor, hazrat Navoiy kabi yetuk shoир, butun dunyoni lol qoldirgan, barcha fanlarni qamrab olgan “Boburnoma” asarining muallifi, buyuk tarixiy shaxs, sifatida hamda o'zbek xalqining asl farzandi sifatida o'zbek xalqiga xos bo'lgan qadriyatlar: bag'rikenglik, mehr-oqibat, samimiylilik, insonparvarlik va yurtga sadoqat kabi hislatlar yosh avlodni tarbiyalashda eng yuksak ma'naviy meros hisoblanadi. Bu merosni asrab-avaylab, uni munosib tarzda yosh avlodga yetkazib berish har bir pedagogning oldidagi muhim



vazifalardan biridir. Zero, Boburdek yetuk inson ma`naviyat beshigi bo`lgan buyuk insonlarni tarbiyalagan ma`rifatparvar xalqimiz va muqaddas vatanimiz tuprog`ida yetishib chiqqani bizning faxrimizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Zahiriddin Muhammad Bobur. “Boburnoma”.-Toshkent: O`qituvchi, 2008.
- 2.”O`zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat nashriyoti. Toshkent-2017.
3. O`zbek mumtoz adabiyoti. O`zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi “Fan” nashriyoti. Toshkent-2005.



AMIR TEMURNING HARBIY MAHORATI HAQIDA

Babajanov Davlatyor Muxammedsharibboy o'g'li

Xorazm viloyati Urganch tumani.

43-som maktab Tarix fani o'qituvchisi

Tel: +998942399424 +998332399424;

Karimova Adolat Shuxratovna

Xorazm viloyati Urganch tumani

39-som maktab Tarix fani o'qituvchisi

Tel: +998 97 790 20 18

Annotatsiya: Ushbu maqolada buyuk sohibqiron bobomiz Amir Temur nomini Mashriqdan Mag'ribga qadar doston qilgan sarkardalik iste'dodi, harbiy jang san'ati haqida, hamda ishbilarmon, xalqparvar, haqiqiy mutaxassislik sifatlari tarixiy-ilmiy asarlar asosida misollar bilan keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: muhoraba, qo'mondon, to'pi-ra'd, qo'l, g'anim, razvedka, strategiya, suvoriy, mashvarat, noib, juvoldiz, sadoq,sovut, dubulg'a, gurzi.

Temurbek yoshlik chog'idan harb ishiga o'zgacha muhabbat bilan qaray boshladi. Navqiron yoshga yetgan Temurbek mo'g'ullar istibdodiga chek qo'yish, Chig'atoy ulusida hukm surayotgan o'zaro nizolar va urushlarga barham berish, tashqi va ichki zug'um tufayli tinkasi qurigan xalq ommasiga madad qo'lini cho'zish, xarob bo'lган shahar va qishloqlarni qayta obod qilish, ulusni tashqaridan bo'ladigan bosqinlardan himoya qilish kabi oliyjanob maqsadlarni yuzaga chiqarishning birdan-bir yo'li-hokimiyatni qo'lga kiritish ekanligini yaxshi anglab yetadi. Temurbekni qo'llab-quvvatlaganlar, keyinchalik uning sadoqatli va ishonchli bek hamda sarkardalari qatoridan o'rinn oladi.

Amir Temur 1370-yilda taxtga o'tirishi ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy hayotda sodir bo'lган ijobiy o'zgarishlar o'z ifodasini harbiy ishda va harbiy san'atda ham namoyon etadi. Uning harbiy iste'dodi asosan ikki yo'nalihsida: mohir harbiy tashkilotchi va atoqli sarkarda tarzida namoyon bo'ladi.

Asosiy karvon yo'llari ustidan nazorat o'rnatish, mamlakat qudratini yanada oshirish, xalq tur mush tarzini yaxshilash kabi ustuvor maqsadlar yo'lida Amir Temur o'sha davrda tengi yo'q harbiy kuchlari bilan Jata, Eron, Afg'oniston, Kavkaz, Iroq, Shom, Misr, Dashti Qipchoq, Shimoliy Anado'li, Hindiston kabi mintaqalarga bir necha bor qo'shin tortib bordi va olamshumul zafarlar quchdi.

Amir Temur barpo etgan armiyaning tuzilishi Chingizzon tuzgan qo'shin tuzilishiga ma'lum darajada yaqin bo'lsada, biroq quyidagi muhim jihatlar bilan farqlanar edi:

1. Chingiziylar qo'shini majburiyat asosida harbiy xizmatga chaqiriladigan xalq lashkarlaridan iborat bo'lsa, Temurbek askarlari o'z hohishi bilan askarlikka qabul qilingan. Amir Temur o'ta intizomli armiya tuzishga, muhoraba chog'ida qo'shin qismlarini san'atkorona boshqarishga, jang taqdiri hal bo'ladigan joylarga harbiy kuchlarni o'z vaqtida ustalik bilan yo'llashga, har qanday to'siq va g'ovlarni tadbirkorlik bilan bosib o'tishga, armiyadagi jangovar rujni oshirishga harakat qiladi.

2. Chingizzon davrida qo'shin asosini ko'chmanchi omma tashkil qilgan. Amir Temur qo'shiniga oliv bosh qo'mondon ko'rsatgan aniq talablarga binoan chorvadorlar qatori kosibchilik, hunarmandchilik, dehqonchilik bilan mashg'ul o'troq aholidan ham askar olingan.

3. Amir Temur Sharqda birinchilardan bo'lib o'z armiyasiga o't sochar qurol, yani to'pi-ra'dni olib kirdi.

4. Sohibqiron tog'li hududlarda jang harakatlari olib boruvchi piyodalardan tuzilgan maxsus harbiy qismlarni tashkil qildi.

5. Amir Temur jahon harbiy san'ati tarixida birinchi bo'lib qo'shinni jang maydonida yetti qo'lga bo'lib joylashtirish tartibini joriy etdi.

6. Sohibqiron armiyasida ayollardan tuzilgan bo'linmalar bo'lib, ular jang chog'i erkaklar bilan bir safda turgan, qahramonlik va matonat namunalari ko'rsatgan.

Amir Temur qo'shini tarkibini Movarounnahr, Dashti Qipchoq, Xuroson, Eron, Badaxshon, Mo'g'uliston, Xorazm, Mozandarondan yig'ilgan askarlar tashkil qilar edi.



Dushman mudofaasini turli usullar yordamida barbod qilish, g'anim tomonning berk va mustahkam mudofaa inshootlariga ega bo'lgan shaharlariga qo'qqisdan kuchli zarba berish, zabit etilgan mamlakatning boshliqlarini va ayniqsa lashkarboshilarini hibsga olish, qal'a hamda qo'rg'onlarni uzoq muddat davomida muhosara qilish, yov kuchlarini iloji boricha keng qamrovda qurshab olish, uning qishloq, shahar, tuman, viloyatlarini birin –ketin fath etish, dushmanni batamom yakson etgunga qadar ta'qib qilish, fath bo'lgan yurtlarni boshqarish uchun o'zining ishonchli vakillarini tayinlash singari strategik maqsadlarni ko'zlab ish yuritish Amir Temurga ko'plab zafarlar olib keldi.

Taktika jihatdan ham armiya o'ziga xos xususiyatlarga ega edi. Qo'shin Qoraxoniylar, G'aznaviyalar, Saljuqiyalar, Chingiziylar qo'shini jangovar tartibidan farqli o'laroq, yetti qism – qo'lga ajratilgan, razvedka a'lo darajada yo'lga qo'yilgan, qismlarning jang maydonida hamda yurish vaqtida talab darajasida harakat qilishi uchun zarur tadbir va rejalar ishlab chiqilgan. Amir Temur o'nlik, yuzlik, minglik hamda tuman qo'mondonlarini tanlash masalasiga bevosita rahbarlik qilgan. Lashkarboshilik salohiyatiga ega bo'lgan qo'mondonlarning to'g'ri tanlanganligi jang natijasining muvaffaqiyatli yakunlanishiga ta'sir ko'rsatgan.

Tarixiy manbalarda keltirilishicha, otliq askarlar Temurbek armiyasining zarbdor qismi hisoblangan, ular og'ir va yengil qurollar bilan qurollangan suvoriy guruahlarga bo'lingan. Yoy, sadoq va qilich bilan yengil qurollangan otliqlar asosan razvedka va soqchilik bilan shug'ullangan, o'ta zarur paytlarda dushman kuchlari bilan jang qilish huquqiga ega bo'lgan. Dubulg'a,sovut, qilich, yoy, sadoq, qalqon va nayza bilan ta'minlangan og'ir qurolli suvoriylar sara jangchilardan tuzilgan, g'animum asosiy zarbasiga qarshi turgan, jang natijasini hal etishda katta o'rinn egallagan.

Yurishga chiqishdan oldin Amir Temur arkoni davlat, vazirlar, sarkardalar, beklar, amirlarni harbiy kengash – mashvaratga chorlagan.

Sharofiddin Ali Yazdiyning yozishicha, Amir Temur Dashti Qipchoqqa qilingan yurish (1390-1391) oldidan qo'shinni bir yilga yetadigan oziq-ovqat, qurol-yarog', kiyim-kechak va boshqa safar uchun zarur ashyolar bilan ta'minlashni o'z noiblariga buyurgan. Har bir suvoriyga bitta yoy, 30 ta o'q, bir sadoq, bir qalqon va bitta qo'shimcha ot ajratilgan. Yurish vaqtida har o'n jangchi bir chodir, ikki belkurak, bir kerki, bir o'roq, bir arra, bir tesha, bir bolta, 100 dona nina olgan.

Abdurazzoq Samarqandiy har bir jangchining yarim man og'irligida arqon, bir dona pishiq teri va bitta qozon olib kelishi lozim bo'lganligini qayd etadi.

“Temur tuzuklari”da ta'kidlanishicha, safar chog'ida oddiy askarlarning har o'n sakkiztasiga bitta chodir berilgan. Har bir jangchi ikkita ot, yoy,sovut, qilich, juvoldiz, qop, o'nta nina, arra va teri xaltaga (chanach) ega bo'lgan.

Sara jangchilarning har beshtasi bir chodirga joylashgan. Ularning har bittasi dubulg'a,sovut, qilich, o'q-yoy, sadoq va buyruqda ko'rsatilgan miqdorda ot bilan ta'minlangan.

O'nbegining alohida chodiri bo'lgan. U Sovut, qilich, o'q-yoy, sadoq bilan qurollangan va beshta qo'shimcha ot olish huquqiga ega bo'lgan. Yuzbegining ham alohida chodiri bo'lgan. Uning qurol-yarog'i qilich, o'q-yoy,sovut, sadoq, gurzi, oyboltadan iborat bo'lgan va o'nta qo'shimcha ot berilgan. Mingbegi chodirdan tashqari soyabon bilan ham ta'minlangan. Dubulg'a, zirih (chahoroyna),sovut, nayza, qilich, sadoq va o'q singari rang-barang qurol turlari bilan qurollangan. Piyoda askarlar asosan qilich, kamon va kerakli miqdordagi o'q bilan safarga chiqqan.

Klavixoning guvohlik berishicha, qo'shin to'plash to'g'risida farmoni oliy e'lon qilinishi bilan askarlar o'z oilasi, asbob-aslahasi, mol-mulki bilan miqdor yerga yetib kelgan. O'rdagohdagi Sohibqironning saropardasi atrofida har bir qism va bo'linmalarining chodirlari tikilgan. Oddiy askardan yirik sarkardagacha har kim o'z joylashish o'mini aniq bilgan. Barcha ishlar tartib-intizom bilan shovqin-suronsiz bajarilgan. Qo'shin bilan birga qassoblar, bakovullar, qovurilgan va pishirilgan go'sht bilan savdo qiluvchilar, arpa va meva sotuvchilar, nonvoylar ham ko'chib yurgan. Turli kasb egalari askarlarga xizmat ko'rsatgan. Hatto ko'chma hammomlar ham jangchilar xizmatida bo'lgan.

Xulosa qilib aytganda, harbiy san'atning o'ziga xos sir-asrorlaridan to'la voqif bo'lgan, mushkul vaziyatlarda dadil va tez harakatlanadigan, hech qanday to'siqlardan chekinmaydigan iste'dod egalarigina Amir Temur tomonidan lashkarboshilikka qo'yilgan. Sohibqiron tanlab olgan sarkardalar o'zlarining harbiy mahoratlarini nafaqat urush kezlarida, balki tinch mehnat chog'ida ham namoyish etishga tinmay harakat qilar edilar.

Amir Temur jahoning to'rtta mashhur sarkardalaridan biri, kuragi yerga tegmagan ulug' lashkarboshi xudo bergen salohiyatini to'la-to'kis namoyon eta olgan, tengi yo'q buyuk armiya



qo'mondoni edi. Jang san'ati, urush yo'llari, lashkar tutish qoidasi, vasiyatlari, maslahatlari, tanbehlari haqida Sohibqironning “Temur tuzuklari” nomli nodir kitobida batafsil yoritilgan: Kuch –adolatdadir.

Botir jangda bilinar, dono mashvaratda.

Davlat to'rt narsa: saltanat, xazina, sipoh va xalq bilan tirikdir.

Nonu-tuz haqini unutgan navkarni huzuringga yo'latma.

Maslahat, kengash, tadbirkorlik – faollik va hushyorlik bilan ish tutishni talab qiladi.

O'zing tarbiyalagan kishini xarob qilma.

Har neki desang unga amal qil....

Sohibqironning “Temur tuzuklari” buyuk kelajagimiz bo'lgan yoshlarimizni, qo'yingki barchamizni Vatanimiz va xalqimizni qadriga yetishga, uning kelajagi uchun astoydil mehnat qilishga, yurtimizni yomon ko'zlardan asrashga, uni dildan sevishga hamda unga sadoqat bilan xizmat qilishga da'vat qiladi.

Foydalilanilgan adabiyotlar

1. Amir Temur. “Temur tuzuklari”.
2. A.Samarqandiy. “Matlai sa'dayn va majmuai bahrain”.
3. H.Vamberi. Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi.
4. Rui Gonsales de Klavixo. “Samarqandga Amir Temur saroyiga sayohat” kundaligi.
5. Ibn Arabshoh. Ajoyib al-maqdur fi tarixi Taymur. (Temur tarixida taqdir ajoyibotlari).
6. Sharofiddin Ali Yazdiy. Zafarnoma.
7. H. Dadaboyev. Amir Temurning harbiy mahorati.



BUYUK MUTAFAKKIRLARIMIZ ILMIY MEROSINING BARKAMOL AVLODNI TARBIYALASHDAGI AHAMIYATI

Eshanov Sohibxon Mutallibxonovich

Namangan viloyati Kosonsoy TXTBga qarashli
8-sonli umumiy o'rta ta'lif maktabining

Tarix fani o'qituvchisi

Tel: +998911815588

Nabiyeva Shoira Abdumannon qizi

Namangan viloyati Kosonsoy TXTBga qarashli
8-sonli umumiy o'rta ta'lif maktabining

Tarbiya fani o'qituvchisi

Tel: +998990277890

Annotatsiya : Ushbu maqola o'quvchilarga turli davrlarda yashagan mutafakkirlar hayotining mazmun-mohiyati va tarbiya borasida yuritgan fikrlari bilan tanishtirishning ahamiyatini yoritishga qaratilgan. O'quvchilar yosh xususiyatlarini inobatga olib, mutafakkirlar qarashlarining darsda qo'llanilishi ta'lif mazmunining uzuksizligi va tarbiya bilan uzviyligini ta'minlashga yordam beradi. O'quvchilarning olgan bilimlarini faqat nazariy jihatdan emas, amaliyotda ham qo'llay olish ko'nikmasini rivojlantirishni ko'zlaydi. Tarixni o'rganishning ahamiyatini ochib berish bilan birga hayotiy ko'nikmalarini ham shakllantirishni nazarda tutadi.

Kalit so'zlar: Ma'naviy meros, tarixiy haqiqatlar, Jaloliddin Rumi qarashlari, Amir Temur, “Tuzuklar”, Ibn Arabshoh, Rui Klavixo, Najmuddin Kubro, Abdurahmon Jomiy, Imom Buxoriy hadislari, Abdulla Avloniy.

Bugungi kun ulkan o'zgarishlar, yangilanishlar davri bo'lishi bilan pedagoglar oldiga ulkan mas'uliyatli vazifalarni ham qo'ymoqda. O'zligini anglashga intilayotgan har qanday millat, dastlab, buyuk ajdodlari, ulug' siymlari va ularning tarixda tutgan o'rni va xizmatlarini qadralashi, shuningdek, ular qoldirgan merosdan bahramand bo'lishi lozim .

Bugungi yosh avlod nafaqat hozirgi zamon ilmi, balki buyuk ajdodlari hayoti va faoliyatlarini ham o'rganishlari zarur. Chunki mustaqilligimiz asoschisi, Respublikamizning birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov ta'biri bilan aytganda: “O'z tarixini bilmaydigan, kechagi kunini unutgan millatning kelajagi yo'q.”

Tarix o'tmishdagi voqealarning bayonigina emas, balki muhim tarbiya vositasi hamdir . Har qaysi xalq yoki millatning ma'naviyati uning tarixi, an'analarini, hayotiy qadriyatlarini bilan chambarchas bog'liq. Bu borada ma'naviy meros, ko'hna tarixiy haqiqatlar eng muhim omillar bo'lib xizmat qiladi.

Tarbiya jarayoni uzoq muddatli, murakkab jarayon bo'lib, bu jarayonda inson tuyg'ulari, qiziqishlari shakllantiriladi. Buyuk mutafakkir Jaloliddin Rumi inson tuyg'ulari borasida “ Insondagi tuyg'ular ma'no nuqtai nazaridan yagona va ja'm , ko'rinishidan esa ayri – ayridir ”, deydi.

Bugun eng asosiy maqsadimiz bo'lgan barkamol avlod tarbiyasida sharq mutafakkirlarining ilmiy merosi muhim ahamiyat kasb etadi. Buyuk sharq allomalari va tarixiy shaxslar hayotini o'rganar ekanmiz, har gal ular hayotining yangicha mazmun va mohiyatini kashf etamiz, ulardan ruhiy quvvat olamiz .

Ma'naviy merosimiz tarixida buyuk davlat arbobi, ulug' sarkarda, yorqin siymo Amir Temurning o'rni alohida ajralib turadi. Uning “Tuzuklar” dagi adolatli jamiyat tuzish haqidagi fikrlari, mamlakatdagi ta'lif-tarbiya, madaniyat va san'atni yuksaltirish borasidagi faoliyati nafaqat o'tmishda, balki bugun ham e'tirof etilmoqda. Chunonchi, Sohibqiron Amir Temur ham buyuk davlat qurishda, ish yuritishda bobolarning o'gitlari, davr donishlarining maslahatlari bilan ish yuritganligi tarixiy manbalardan ayondir. To'g'ri , Sohibqiron haqida mustabid tuzum hukmronligi davrida turlicha qarashlar, jumladan , “qonxo'r”, “zolim” deyilgan ta'riflar berildi. Ammo biz bugun asl haqiqatlarni bilamiz. Ibn Arabshoh “Amir Temur bepoyon mushohada va tafakkurga ega shaxs... U fikrini peshlash maqsadida muttasil shatranj o'ynardi“ deb yozadi .



Sohibqiron bilan yuzma-yuz ko'rishish baxtiga erishgan ispan sayyohi Rui Klavixoning guvohlik berishicha , Amir Temur bo'sh vaqtlarida olimlar bilan munozara qilishni yaxshi ko'rarkan. Sayyoh hayajonlanib yozadi: "O'zi bilan tortishgan va tortishuvda yutib chiqqan olimni mukofotlagan kishini zolim deb bo'ladi?"

Bu fikrning eng ahamiyatli tomoni shundaki, ilm ahli bu davrda juda yuksak qadrlangan. Samarqandda shahar darvozasidagi maxsus didbonlar keluvchilar bilan ishi bo'lmas, ketuvchilarni esa sinchiklab tekshirardi, negaki biror sabab bo'lib mashhur olim , shoir yoki kosib ketib qolmasligi tayinlangan.

Ajdodlarimiz qismatning suronli, ba'zan esa fojiali silsilalarini bosib o'tdi. Shunga qaramay, o'zbek xalqi ulug' allomalarini, sarkardalarni va buyuk mutafakkirlarni tarbiyalab, voyaga yetkazdi, mislsiz ma'naviy boylik yaratdi, jahon sivilizatsiyasi rivojiga salmoqli hissa qo'shdi. Asrlar davomida yaratilgan ma'naviy xazinalarimizdan foydalanish farzandlar kamolotiga ulkan hissa qo'shadi. Jumladan , "Temur tuzuklari" dagi "Maslahat , mulohazakorlik, o'ylab ish qilish qurol kuchidan o'n barobar foydaliroqdir" degan fikrlari, Najmiddin Kubroning "Vaqtni "essiz", "qaniydi", "koshkiydi"lar bilan o'tkazgan kishining umri eng qisqa umrdir" degan fikrlari, Abdurahmon Jomiyning "Kim hunarni desa, u dono bo'lur, nodonlar qudrat deb boylikni bilur " kabi fikrlari insonning o'z-o'zini takomillashtirishiga turtki beradi.

Zero, Imom Buxoriy ham o'z hadislarida odam komil inson bo'lishi uchun o'ziga ravo ko'rganni o'zgalarga ham ravo ko'rishi zarurligini ta'kidlaydi .

Buyuk mutafakkirlarimizning axloq, tarbiya, komil inson to'g'risidagi fikrlari va ibratl so'zlari bilan bugungi avlodni tanishtirish, oshno qilish shubhasiz barkamol avlodni tarbiyalashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Buyuk jadid arboblaridan biri Abdulla Avloniy o'zining "Turkiy guliston yoxud axloq " asarida ijtimoiy va axloqiy-ta'limiy qarashlarini bayon etadi. Avloniy hazratlari "Bolaning salomati va saodati uchun yaxshi tarbiya qilmak- tanini pok tutmak, yosh vaqtidan maslagini tuzatmak, yaxshi xulqni o'rgatmak, yomon xulqlardan saqlab o'sdurmakdir. Tarbiya qiluvchilar tabib kabidurki, tabib xastaning badanidagi kasaliga davo qilgani kabi tarbiyani bolaning vujudidagi jahl maraziga "yaxshi xulq" degan davoni ichidan, "poklik" degan davoni ustidan berub , katta qilmak lozimdir ". Bu kabi fikr va qarashlarni yana ko'plab davom ettirish mumkin. Muxtasar qilib aytganda, har qanday maqsad sari yo'l ham ilk qadamdan boshlanadi. Farzandlar tarbiyasi va ta'lim jarayonida sharq mutafakkirlari ilmiy qarashlari va hayotiy tajribalaridan foydalanish ularning nafaqat barkamol avlod sifatida tarbiyanishiga, balki olgan nazariy bilimlarini amaliyatda ham qo'llay olish ko'nikmalarini shakllantirishga va shu asosda ta'lim va tarbiya uyg'unligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Islom Karimov. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch . Toshkent. 2008.
2. Abdulla Avloniy .Turkiy guliston yoxud axloq .Toshkent .2018.
3. Tohir Malik . Odamiylik mulki .Toshkent .2005.
4. Hakim Sattoriy .Hazrat Sohibqiron .Toshkent .2009.
5. Temur tuzuklari . Toshkent .1991.



AMIR TEMURNING DAVLATCHILIK VA BOSHQARUV TIZIMI SOHASIDAGI ISLOHOTLARI.

Muallif: B.Meliqulov

Annotatsiya. Mazkur maqola XIV asr ikkinchi yarmida o’z davrining qudratli imperiyasini tuza olgan Sohibqiron Amir Temurning davlatchilik va boshqaruv sohasida amalga oshirgan islohotlari bayoni atroflicha tahlil etilgan.

Kalit so’zlar: davlat boshqaruvi, dargoh,vazirlik tizimi.

Har bir xalqning o’z buyuk siymolari, daholari bor. Ularning qaysi biri, asosan, o’z millatining taqdirida tarixi, buguni kelajagida ulkan rol o’ynaydi. Uning amalga oshirgan ishlari boshqalar uchun ham ibrat namunasi bo’lib qoladi. Shunday ulug’ zotlar ham bo’ladiki, ularning amalga oshirgan ishlari Vatan sarhadlaridan chiqib, insoniyat taqdiri va tarixiga ta’sir etadi va o’z zamonasi uchungina emas, olis kelajak uchun ham o’zining qudratli mavqeyini saqlab qoladi. Sohibqiron Amir Temur shunday siyodir.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning bu borada buyuk Sohibqiron Amir Temur bobomizning: “Adolat har bir ishda hamrohimiz va dasturimiz bo’lsin!”- degan chuqr ma’noli so’zları har birimiz uchun hayotiy e’tiqodga aylanishi zarur.[1,10]

Sohibqiron Amir Temur o’z davrining qudratli davlatiga asos solgandan so’ng, bu davlatda o’ziga xos boshqaruv tizimini joriy qildi. U dunyoning 27 o’lkasi va viloyatlarni zabt etib, Hindiston hamda Xitoydan Qora dengizga qadar, Sirdaryo va Orol dengizidan Fors qo’ltig’iga qadar g’oyat katta hududni qamrab olgan markazlashgan ulkan sultanatga asos soldi. Amir Temurning davlat boshqaruv tizimi butun hududda yagona markazlashgan siyosiy tartib asosiga qurulgan edi.

Sohibqiron Amir Temur : ”O’zga mamlakatlarni zabt etish, ularni idora qilish, g’anim lashkarlarini sindirish, dushmani tuzoqqa tushirish, muxoliflarni (kunglini ovlab) do’stga aylantirish, do’st-dushman orasida muomala murosa-yu madora qilish xususida ushbu kengash va tadbirlarni qo’lladim”, - deb yozadi, “Temur Tuzuklari” asarida. Pirim Zayniddin Abubakir Toybodiyy mena yozishicha “Abulmansur Temur sultanat ishlarida to’rt narsaga amal qilgin yani: 1) kengash; 2) mashvarat-u maslahat; 3) qat’iy qaror, tadbirkorlik va xushyorlik; 4) ehtiyojkorlik. Chunki kengash va mashvaratlarsiz sultanatni barcha qilgan ishlari va aytgan gaplari notug’ri bo’lgan johil odamga qiyos qilish mumkin, uning aytgan so’zları va qilgan ishlari boshga pushaymonlik va nadomat keltirgay.”. Maktubda yozilgan so’zlar esa sultanat ishlarida men uchun eng tug’ri yo’lboshchi edi. Shunga ko’ra davlat ishlarining to’qqiz ulyishini kengash, tadbir va mashvarat, qolgan bir ulyishini esa qilich bilan boshqarilishini angladim”- deb yozadi Sohibqiron Amir Temur. [2,14]

Amir Temur buyuk imperiya tuza olgan bo’lsada, ammo u umrini oxirigacha o’zini bu davlatning qonuniy xoni deb e’lon qila olmadi. Chunki u nasl nasab jihatidan Chingiziylar sulolasiga mansub emas edi. Shuning uchun ham Amir Qozonxon tomonidan belgilangan ananaga ko’ra Temur avval o’z xuzurida Movaraunnahrning Chingizzon avlodidan bo’lgan o’ttizinchi xoni Suyurg’artmishni (1370-1388 yillar), uning vafotidan keyin esa Suyurg’artmishning o’g’li Sulton Maxmudxonni (1388-1402 yillar) rasmiy xon qilib ko’tarib, xatto umrining oxirigacha ularning nomidan yorliqlar chiqartiradi, pullar zarb ettiradi. Ammo har ikki xon ham nomigagina “xon” bo’lib, davlatning siyosiy hayotiga va Temur bergan farmoyishlarga mutlaqo aralashmasdilar. Amir Temur mamlakatda o’zining bevosita hukumronligiga qonuniy tus berish va uni mustahkamlab olish maqsadida o’zining oldingi raqibi Amir Husayinning tul xotini Saroy Mulkxonimga uylanadi. Saroy Mulkxonim Movaraunnahrning Chig’atoy xonadonidan chiqqan so’ngi Chingiziylar avlodi Qozonxonning qizi edi. 1370 yilda Saroy Mulkxonim bilan bo’lgan nikoh tufayli Temur o’zining amirlik darajasiga “Ko’ragon”, yani “xonning kuyovi” unvonini qo’shib oladi va rasmiy xujjalarda “Amir Temur Ko’ragoniy” nomi bilan yuritilishiga musharraf bo’ladi.[3,33-34]

Amir Temur davlat sarhadlarini yani bosib olingen viloyatlarni o’g’illari, nabiralari va nufuzli amirlarga suyurg’ol tarzida in’om qilib, ular orqali boshqaradi. Movaraunnahrda tashqari o’z tasarrufidagi barcha viloyat va mamlakatlarni Temur to’rt ulusga bo’ladi. To’ng’ich o’g’li Muhammad Jahongirga Balx viloyati bilan 12 ming navkarlik qo’shin, ikkinchi o’g’li Umarshayxga Fors viloyati va 10 ming askar, uchinchi o’g’li Mironshohga Ozarbayjon, Iroq, Armaniston bilan 9 ming kishilik qo’shin, kenja o’g’li Shohruuxga Xuroson, Jurjon, Mozondaron, Seiston bilan 7 ming askar beradi. Garchand Uluslar markaziy hokimiyatga itoat etsalarda, ammo ular malum mustaqillikka ega edi. Ulus hukumdarlarining alohida davlat devonxonasi bo’lib, ularning markaziy hukumatga tobelligi xirojning bir qismini Samarqandga yuborib turish va oliy hukumdar



harbiy yurishlarida o’z qo’shini bilan qatnashish yoki talab qilingan askarni yuborib turishdan iborat edi.[3,35]

Temur davrida davlatning markaziy ma’muriyati boshida devonbegi, uning yonida arkbegi (marosimlarni boshqaruvchi) hamda to’rt vazir turar edi. Birinchi vazir yer soliqlari, chegara bojini undirish hamda mirshablik ishlarini bajargan. Ikkinci vazir askarlar maoshi va oziq ovqat ta’minotlari bilan shug’ullangan. Uchinchi vazir harbiylar, ularning lavozim-u mansablarga tayinlanishi va meros ishlariga qaragan. To’rtinchisi esa saroy xarajatlarini boshqargan.[3,36]

Amir Temur o’z davrining mukammal davlat boshqaruv tizimiga asos solibgina qolmasdan uni boshqarishning o’ziga xos yo’llarini ham ishlab chiqqan dono siyosatchi ham edi. Temurning ijtimoiy-siyosiy tamoyillari tizimini yanada batafsilroq bayon qilsak, quyidagi manzara hosil bo’ladi: 1. Amir Temur iqtisodiyotni har qanday sultanat poydevori, deb tushungan. «Davlat-u sultanat – deb ta’kidlaydi, Temur o’zining «Tuzuklari»da, – uch narsa bilan – mulk, xazina va lashkar bilan tirikdir». Bu bilan Temur davlatning yashashi va ijtimoiy rivoji uchun, avvalo, iqtisodiy imkoniyatlarga ega bo’lishi zarurligini ta’kidlaydi. 2. Amir Temurning qarashlariga ko’ra, har bir mamlakat, turli xil iqtisodiy imkoniyatlaridan kelib chiqib, barcha mintaqalar xususida to’la ma’lumotlarga ega bo’lishi va ularning iqtisodiy xususiyatlarini hisobga olishi lozim. 3. Amir Temur asosiy ishlab chiqarish vositasi bo’lgan yer egaligiga katta e’tibor qildi va har bir viloyatni idora qilishda davlat, vaqf, xususiy yer egaligi tartiblarini saqlab qoldi va bunga yer maydonining miqdori, egalik huquqini davlat manfaatini ko’zda tutib, o’zgartirishga harakat qildi. 4. Temur mehnatning yaratuvchanlik faoliyatini nazarda tutib, uni ijtimoiy qadriyat, deb tushundi. 5. Amir Temur iqtisodiy tamoyillari tizimida moliya masalalariga katta e’tibor bergen. Chunki moliya Temur nazarida davlatning iqtisodiy tayanchi hisoblangan.[4,26]

Bundan tashqari, Amir Temurning siyosiy-huquqiy qarashlari uning axloqiy qarashlari bilan asoslanadi va diniy axloq ustiga quriladi. Shuning uchun ham Temur nazarida har qanday siyosatning muvaffaqiyati podshohning o’z fuqarolariga bo’lgan rahmdilligi, saxovatidadir. Temur o’z siyosatida hamadolat, haqqoniylilik, odillikka tayanib ish tutdi. Chunki o’z siyosatida haq yo’lini tanlagan Temur bundan boshqa siyosat yuritishi mumkin emas edi.

Shunday qilib, Temur hamadolat haqidagi o’z qarashlarini diniy tamoyillarini asosida bayon qildi. Temur o’z sultanati siyosatini amalga oshirishda islam, shariat, tariqat, futuvvat ilmlarini to’la egallash bilangina emas, balki dunyoviy ilmlarni hamda siyosat tamoyillarni, o’tmishdagi davlat boshliqlari siyosiy qarashlarini o’rganish va qabul qilish bilangina muvaffaqiyatli siyosat yurgizish mumkinligini anglab yetgan. Amir Temur o’zi yashab turgan jamiyatni eng yetuk ijtimoiy tizimga aylantirish, farovon hayot qurish maqsadidagina kurashib qolmay, balki bu g’oyalarning butun dunyoda tantana qilishiga ham ishongan edi. Faqat shu maqsaddagina u harbiylik libosini kiygan edi.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, Sohibqiron Amir Temur asos solgan boshqaruv tizimi bugungi kunda ham dasturulamal bo’lib kelmoqda. Bunga misol qilib Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirmonovich Mirziyoyev tomonidan 2017-yil 7-fevral kungi farmoni bilan 2017—2021-yillarda O’zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishi bo’yicha “Harakatlar strategiyasi”ning qabul qilinishi muhim ahamiyatga egadir. “Harakatlar strategiyasi”ning Davlat va jamiyat qurilish tizimini takomillashtirish yo’nalishida belgilab qo’ylgan qarorlar misolida ko’rishimiz mumkin. Harakatlar strategiyasining birinchi yo’nalishi aynan moviy havorang rang bilan begilanishi, birinchidan, osmon va toza suv ramzi, ikkinchidan esa, Amir Temur davlati bayrog‘ining rangi ham aynan shu rangda bo’lgani fikrimizni dalilidir. Buyuk ajdodlarimizdan qolgan merosni avaylab-asrab kelajak avlodlarga yetkazib berish biz yoshlarning burchimizdir.

Adabiyotlar

1. Шавкат Мирзиёев Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргалиқда барпо этамиз.- Тошкент - «ЎЗБЕКИСТОН» - 2016 УЎК: 323.(575.1) КБК 66.3(5У)М 54
2. Темур тузуклари.-Тошкент Фоур Гулом номидаги нашриёт- матбaa бирлашмаси. 1991-ИБ № 4811
3. Абдулаҳад Муҳаммаджонов Темур ва Темурийлар салтанати- Тошкент Қомуслар бош таҳририяти.1994
4. Зиёдулла Муқимов Амир Темур Тузуклари (Тарихий-хуқуқий тадқиқот) САМАРҚАНД – 2008 УДК: 34:9 (575.1) М-95
5. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha Harakatlar strategiyasi to’g’risida”gi Farmoni //www.gov.uz



TARIX DARSLARIDA O'QUVCHILARNI GURUHLARGA BO'LIB ISHLASHNING AFZALLIKLARI

Raxmanov Polvonnazir Sadullayevich
Xusainov Zufar Odamboy o'g'li
Xorazm viloyati Xiva shahar
11-IDUM tarix fani o'qituvchilari
Tel:+998932868822; +998941448626

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarix darslarida o'quvchilarni guruhlarga bo'lib o'qitish orqali fanga qiziqishini oshirish, mavzuni to'liq anglab olish va faol bo'lishga undash haqida so'z boradi. Shuningdek tarix darslarida samarali qo'llash mumkin bo'lган metodlar berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: tarix, guruhlar bilan ishlash, dars, o'qituvchi, o'quvchi, guruh, Romasiya, Glossariy, TTT metodlari, taqdimot.

Xozir maktab o'quvchilari bo'lган farzandlarimiz, ertaga vatanimiz taqdirini hal qiluvchi yetuk kadrlar bo'lib yetishadi. Farzandlarimizni har tomonlama barkamol insonlar bo'lib yetishishlari uchun biz o'qituvchilar har birimiz ma'sulmiz. Bunday ma'suliyatli vazifani bajarish uchun o'qituvchi avvalo o'z ustida tinimsiz ishlaydigan, har tomonlama keng fikrладиган, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini dars jarayonida samarali qo'llay oladigan, o'quvchining yuragiga chuqur kirib boradigan bo'lishi lozim.

Maktabda darslarni samarali tashkil etishda kichik guruhlarda ishlash yaxshi natija beradi. Romasiya- kichik guruhlarda ishlash. O'qitishning interfaol metodi bo'lib, u qisqa vaqt ichida barcha ishtirokchilarni jalb qilgan holda ko'p vazifani bajarishga va shu orqali dars samadorligini oshirishga imkon beradi. Guruh a'zolari soni 4-6 kishigacha bo'lishi maqsadga muvofiq, chunki guruhlarda o'quvchi qanchalik kam bo'lsa har bir o'quvchi o'z iqtidorini namoyish qiladi.

O'quvchilarni guruhlarga bo'lish usullari:

- Sanash orqali;
- O'quvchilarning xohishiga ko'ra;
- Rangli stikerlar yordamida;
- O'quvchilarning o'zlashtirishiga ko'ra;
- Jurnaldag'i ro'yxat bo'yicha;

Guruhlarda ishlash bo'yicha tavsiyalar:

- ✓ Topshiriqni bajarishga yetarli vaqt bering;
- ✓ Hamkorlikda ishlashlariga e'tibor bering;
- ✓ Guruh a'zolari bir-birlari bilan muloqot qilish imkoniyatini yarating;
- ✓ Guruhlarni shakllantirishda ehtiyyot bo'ling;
- ✓ Guruhlar ishlayotganda ularni kuzating;
- ✓ Taqdimotga chiqmoqchi bo'lganda, ma'ruzachi tanlashdaadolatli bo'ling;
- ✓ Guruhlarni rag'batlantiring.

Guruhlarda ishlashda xalaqit beruvchi omillar:

1. Guruh a'zolarida jamoaviy ishlash tajribasining yetishmasligi
2. Guruhdagi bir kishining fikrini hech qanday muhokamasiz qabul qilish
3. O'zaro munozaralardan qo'rqrish
4. Guruh a'zolari tarkibining to'g'ri tashkil topmaganligi;
5. Ba'zi guruh a'zolarining faol guruh a'zolari "soyasida" qolib ketishi va boshqalar.

O'qituvchi ushbu kamchiliklarni bartaraf etib, guruhlarning faolligini yanada oshirishi lozim. Buning uchun olib borishi lozim bo'lган ishlar quyidagilardan iborat:

- ❖ Guruh a'zolarini bir-biriga jipslashtirish;
- ❖ Guruhda o'zaro ziddiyat vujudga kelganda uni odilona bartaraf etish;
- ❖ Guruh ishtirokchilari tomonidan bildirilgan fikrlarni umumiylashtirib, xulosa chiqarish;
- ❖ Guruh yutuqlarini e'tirof etib, rag'batlantirish;

Dars samaradorligini oshirish, o'quvchilarni darsga qiziqtirish maqsadida kichik guruhlarda ishlashning turli qiziqarli usullaridan foydalanish yaxshi samara beradi. "Bu kim?" "Glossariy", "TTT metodi", "Idrok xaritasi", "To'g'risini top", "Piramida" kabi metodlar shular jumlasidandir.

"Glossariy" metodi: "Gloss" lotincha so'zdan olingen bo'lib, "bilimlar majmuasi" degan ma'noni



bildiradi. Bu metodni deyarli har darsda qo‘llasa bo‘ladi. Unda guruh a’zolaridan chaqqonlik va topqirlik talab qilinadi. Masalan: atama, sana, tarixiy shaxslarni yozib yoniga bo‘lgan voqeasi, atama bo‘lsa ma’nosi, tarixiy shaxs bo‘lsa kim ekanligi doskaga yoziladi yoki bu metodni magnit doskada yoki elektron doskada ham bajarsa bo‘ladi.

“Glossariy” metodi:

7-sinf O’zbekiston tarixi fani bo‘yicha Tarixiy shaxslar misolida

- Marvon II
- Divashtich
- Qutayba
- G‘urak

- *Arab xalifasi*
- *Panjikent hokimi*
- *Xuroson noibi*
- *So‘g‘dda bo‘lgan qo‘zg’olon rahbarlaridan biri*

“Glossariy” metodi:

Atamalar misolida

- Jiz’ya
- Islohot
- Zakot
- Farmon

- *Islom dinini qabul qilmaganlardan olinadigan soliq*
- *Mavjud tartibni o‘zgartirish*
- *Mol-mulkning 1/40 qismi hajmida olingan soliq*
- *qonun kuchiga ega bo‘lgan farmon*

“TTT metodi” (Tushundim, tahlil qildim, topdim)

Tarixiy ma’lumotlar xato yoziladi, o‘quvchi dastlab ma’lumotni tushunishi, tahlil qilishi, so‘ng to‘g‘ri javobni topishi kerak.

TTT metodi 8-sinf O’zbekiston tarixi fanidan tarixiy sanalar misolida

1.1756-1758 yillar	Amir Abdulahad
2.1758-1785 yillar	Amir Muzaffar
3.1785-1800 yillar	Amir Shohmurod
4.1800-1826 yillar	Doniyorbiy
5.1826-1860 yillar	Amir Olimxon
6.1860-1885 yillar	Amir Muhammad Rahimbiy
7.1885-1910 yillar	Amir Haydar
8.1910-1920 yillar	Amir Nasrullo

**TTT metodi
To‘g‘ri javob proyektor orqli ekranda qo‘yiladi**

1.1756-1758 yillar	1.Amir Muhammad Rahimbiy
2.1758-1785 yillar	2.Doniyorbiy
3.1785-1800 yillar	3.Shohmurod Amir Haydar
4.1800-1826 yillar	4.Amir Haydar
5.1826-1860 yillar	5.Amir Nasrullo
6.1860-1885 yillar	6.Amir Muzaffar
7.1885-1910 yillar	7.Amir Abdulahad
8.1910-1920 yillar	8.Amir Olimxon

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, o’qituvchi guruqlar bilan ishslash jarayonida o’quvchilarga tarixiy bilimlarni singdirib, ularni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalab borsa, keljakda barkamol avlodni yetishtirishda o‘z hissasini qo‘shtigan bo‘ladi.

Foydalilanilgan adabiyotlar

1. Shamsutdinov R., Mo ‘minov X. O’zbekiston tarixi
2. Muhammadjonov A.R. 7-sinf O’zbekiston tarixi darslik.
3. Jo‘rayev U., Usmonov Q.T. 8-sinf O’zbekiston tarixi darslik.
4. Sattorov.F.S., Olimov E.S., Norov I.K. XXI asr maktabida zamonaviy darsga qo‘yilgan talablar.



TARIX FANINI O'QITISHDA ILMIY PEDAGOGIKANING O'RNI

Jumaniyozov Jorabek, Xorazm viloyati

Bog'ot tumani 3-IDUMI ning

tarix fani o'qituvchisi.

Telefon:+99899 506 37 61

Matrizayev Murodjon, Xorazm viloyati

Bog'ot tumani 3-IDUMI ning

Tarix fani o'qituvchisi.

Telefon:+998 97 789 02 49

Annotatsiya: Mazkur maqolada tarix fanini o'qitishning o'ziga hos xususiyatlari va bu fanni o'rghanishda ilmiy pedagogikaning o'rnini ko'rib chiqiladi. Shuningdek ilmiy pedagogikaning turli metodlari va zamonaviy metodlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: pedagogika, ilmiy pedagogika, gipoteza, innovation, g'oya , mafkura, kuzatish metodi, gipoteza qilish usuli, o'zlashtirish, qo'llanilish usuli.

O'zbekistonning davlat mustaqilligini qo'lga kiritishi tufayli xalqimizning asriy orzusi ushaldi, o'z taqdiri va kelajagini o'zi yaratadigan bo'ldi. Tarixan qisqa davrda jamiyatimiz ijtimoiy siyosiy hayotining barcha sohalarida keskin burilish yasaldi. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish, faol demokratik yangilanishlarni amalga oshirish bilan bog'liq qator islohotlar o'tkazildi. Jumladan, ana shu buyuk o'zgarishlarni asrlar davomida orzu qilgan xalqimizning ko'hna tarixiga bo'lgan munosabati tubdan o'zgardi. Ayniqsa, bugungi murakkab globallashuv davrida ma'naviyat sohasida vujudga kelayotgan dolzarb muammolar, xalqimiz ma'naviyatini asrash va yanada yuksaltirish, yosh avlodning qalbi va ongini turli zararli g'oya va mafkuralar ta'siridan saqlash va himoya qilishda Vatan tarixini har tomonlama va chuqur tadqiq etish, birlamchi manbalarga tayanib talqin etish, keljak avlodga haqiqiy tariximizni o'qitish orqali ularni yuksak ma'naviyatli shaxslar etib tarbiyalash dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Tarixni o'qitishda ilmiy pedagogik usuldan foydalanish tushunish va ishtirok etish qobiliyatini rivojlantiradi. Har o'quv yili boshida men o'quvchilarimdan: “Nega biz tarixni o'rganamiz?” degan savol bilan yuzlanaman. Javob odatda “ Biz o'tmishdagi xatolarni takrorlamasligimiz uchun” degan javob olaman. Tarixiy voqealarning axloqiy, siyosiy va ijtimoiy murakkabliklarini tushunish - bu jamiyatni hozirgi vaqtida yaxshiroq qaror qabul qilishimizga yordam beradi. Lekin qanday qilib biz o'z sinfimizda real hayotda bunday ta'limni targ'ib qila olamiz? Tarixiy so'rovlardan foydalanish, xuddi ilmiy uslub singari, tushunish va jalb qilishni yaxshilaydi. Tarix fanini o'qitishda bir nechta pedagogik metodlardan foydalanish dars samaradorligini oshiradi.

Ushbu metodlar quyidagilardan tashkil topgan:

Bashorat qilish usuli.

Biz tez -tez gipoteza so'zi faqat fan darsida ishlataladi deb o'ylaymiz, lekin tarixchilar ham bashorat qilishadi. Tarix darsini tezis bilan boshlashning o'rniga, tarixiy gipoteza bilan tadqiqot faoliyatini boshlang.

Savol- Javobni sinf uchun tuzgandan so'ng, har bir o'quvchi individual gipotezani yozadi. Biz yaqinda Fuqarolar urushi bo'limini tugatganimiz sababli, ko'plab o'quvchilar: “Qayta qurishni ma'qullaydigan shimoliy shtatlar ko'proq yodgorliklar yaratdilar, chunki ular urushda g'alaba qozonganlarini eslashni xohlashdi”, deb taxmin qilishdi. Ba'zi o'quvchilar o'z bashoratlarini Sharlettesvildagi tartibsizliklar haqidagi bizning hozirgi voqeamiz bilan bog'lab, shunday taxmin qilishdi: “Qayta tiklanishni ma'qullamagan janubiy shtatlar o'z yodgorliklarini yaratdilar, chunki ular halok bo'lgan askarlarini ulug'lashni xohlashdi. Shimoliy shtatlar ko'p yodgorliklar qurishni xohlamaydilar, chunki Shimoliy urushda g'alabani nishonlashdan ko'ra, mamlakatni birlashtirishga e'tibor qaratmoqchi edi ”. Bashorat qilish o'quvchilarini tarixiy empatiyani o'rganishga undaydi. Turli odamlar tarixiy voqeani qanday qabul qilishdi? Nima uchun? O'quvchilar dalilni isbotlovchi ma'lumotni topishga urinishning o'rniga, faraz yaratib, dalillar ularga nima deydi, deb hayron bo'lishadi: Ma'lumotlar mening bashoratimga to'g'ri keladimi yoki menga oldindan aytmagan narsani ko'rsatadimi?

O'quvchilarning dalil topishga bo'lgan faolligini oshirish uchun o'qituvchilar o'quvchilardan o'z manbalarini topishni so'rashlari mumkin. Masalan, mening sinfimdagagi o'quvchilar guruhi



fugorolar urushi yodgorliklari qayerda joylashganligini tushunishga dalil topdilar. Ma'lumot yig'ish o'quvchilarga manbalar bilan shug'ullanish va o'z farazlari bilan bog'liqlikni ko'rish imkonini beradi. Bu so'rovga asoslangan ssenariyida javob sir bo'lib qoladi va o'quvchilar eski xulosalarni takrorlash o'rniga yangi xulosalar chiqarishga sarmoya kiritadilar.

Ma'lumotlarni tahlil qilish va xulosalarni ishlab chiqish usuli.

Tarix o'qituvchilari sifatida biz o'quvchilarni manbalarni tahlil qilishga va manba tahlilini tarixiy kontekst bilan bog'lashga ko'nikamiz. Men o'z o'quvchilarim bilan ma'lumotlarni tahlil qilish iborasini ishlatishni yaxshi ko'raman, chunki bu ularni ma'ruzada aytganlarimni takrorlashga xalaqit beradi va ularni tarixchilarga aylantiradi, ular haqiqiy tarixiy tadqiqot deb hisoblaydi. Masalan, mening ko'plab o'quvchilarim shtatlar fuqarolar urushi yodgorliklari qurilgan bir vaqtida Jim Krou qonunlarini qonuniylashtirganini biliшdi.

Tarixni o'rgatish uchun ilmiy-pedagogik usuldan foydalanish - moslashuvchan, takrorlanadigan yondashuv. Bu o'quvchilarni tanqidiy fikrlash va baholashga jalb qilgani uchun, bu usul tarix darsining yakuniy natijasi esda qoladigan narsa emas, balki nima qilish kerakligi haqiqatini mustahkamlaydi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yhati:

1. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'llimiz bilan quramiz. T.7. –T.:O'zbekiston, 1999.
2. Oblomurodov N., va boshqalar. O'zbekiston tarixi. O'quv qo'llanma. –T.: Yangi asr avlod, 2011.
3. Usmovov Q. va boshqalar. O'zbekiston tarixi. Darslik. –T.: Sharq, 2007.



AMIR TEMUR - MARKAZLASHGAN DAVLAT ASOSCHISI

Ashurova Marhabo Sobirovna

Navoiy viloyati Qiziltepa tumani 12- maktab

Tarix fani o'qituvchisi

Telefon: +998 90 233 41 56

Annotatsiya: Ushbu maqolada Amir Temurning intizomli qo'shin tuzishi, jang paytida qo'shin qismlarini oqilona boshqarishi, jang taqdirini hal qiladigan joylarga harbiy kuchlarni tezkorlik bilan ish tutishi, mavjud to'siq va g'ovlarni tadbirkorlik bilan bartaraft etishi, qo'shindagi jangovor ruhni yuksak darajada ushlab turishga erishganliklari bayon etiladi.

Kalit so'zlar: Sohibqiron, harbiy-siyosiy, davlat boshqaruvi, Amir Temur, saltanat.

Sohibqiron Amir Temur o'z zamonasining talab-ehtiyojlaridan kelib chiqib davlat boshqaruvini takomillashtirdi, unga yangicha ruh va mazmun berdi. Davlatning tarkibiy tuzilishi harbiy-siyosiy tarkiblarga asoslangan bo'lsa-da, jamiyat rivoji, barcha ijtimoiy tabaqalarning manfaatlarini ta'minlash nazarda tutilgan edi.

Amir Temur saltanatida davlat boshqaruvi ikki idoradan: dargoh va vazirlik (evondan) dan iborat bo'lган dargohni oliy hukmdorning o'zi boshqargan. Ijroiya hokimiyat devonni devonbegi (bosh vazir) boshqargan. Devonda harbiy vazir, mulkchilik va soliq ishlari vaziri, moliya vaziri faoliyat yuritgan. Bulardan tashqari, sarhadlar va tobe mamlakatlarning boshqaruvini bilan shug'ullanuvchi yana uch vazir bo'lib, ular devonbegiga hisobot berib turgan.

Tashqi va ichki favqulodda vaziyatlardan voqif etib turuvchi ming nafar piyoda, ming nafar ot mingan choparlari bo'lgan. Butun saltanat bo'ylab bir kunlik yo'l oralig'ida yomxonalar tashkil etigan. Har bir yomda 50-200 ot-ulov tutilgan. Sohibqiron mamlakani boshqarishda o'z yaqinlariga suyandi.

Sohibqiron davlat boshqaruvi ishlarida islam qonun-qoidalariga asoslangan. Uning Qur'oni karim va Hadisi shariflarga munosabati samimiy va oliy darajada bo'lgan. Payg'ambar avlodlari, shayxul-mashoyixlarga hurmati cheksiz edi. Davlatni kuchaytirishda ham aynan shunday kishilarga tayanib ish yuritgan.

Amir Temur davlat mustaqilligi va muhofaza yo'lidagi ichki va tashqi siyosati asosan qo'shinga suyanar edi. Shuning uchun ham u qo'shin boshliqlarini tanlash va ularni tarbiyalash, harbiy qismlar va va ularning joylashish tartibi, navkar va sarbozlarning qurollanishi hamda ichki intizom masalalariga nihoyatda katta ahamiyat berardi.

Sohibqiron intizomli qo'shin tuzishga, jang paytida qo'shin qismlarini oqilona boshqarishga, jang taqdirini hal qiladigan joylarga harbiy kuchlarni tezkorlik bilan yollashga, mavjud to'siq va g'ovlarni tadbirkorlik bilan bartaraft etishga, qo'shindagi jangovor ruhni yuksak darajada ushlab turishga erishgan.

Amir Temur qo'shiniga chorvadorlar qatori o'troq aholidan ham askar to'plagan. Askariy qismlarni viloyatlardan toplash bilan tavochi mansabidagi amaldorlar shug'ullanar edi. Qo'shinda harbiy kuchlarning asosini tashkil qilgan otliq askarlar bilan bir qatorda piyodalar ham xizmat qilgan. Amir Temur qo'shini son jihatdan aniq tashkil etilgan, uning jangovor tartibi takomillashib borgan, o'z zamonasining ilg'or qurol va texnikasi bilan ta'minlangan, qismlar bir-biridan kiyimbosh, bayroq va tug'lari bilan farqlangan. Bunday farqlanish jangda qo'shinni boshqarishda qo'l kelgan.

Sohibqiron Amir Temur jahon siyosiy hayotiga ham ta'sir ko'rsatdi. U o'z davlati poytaxti Samarqand atrofida qad ko'targan bir qancha yangi qishloqlarni Sharqning mashhur shaharlari Dimishq (Damashq), Misr, Bag'dod, Sultoniy va Sheroz nomlari bilan atadi. Chunki Samarqand kattaligi, go'zalligi hamda tevarak-atrofining obod etilganligi jihatidan dunyodagi eng yirik shaharlardan ham ustunroq turmog'i lozim edi.

Tashqi savdoda ham Samarqand katta o'rinn tutgan. Samarqandda turli mamlakatlardan, xususan, Xurosandan ma'danlar, Hind va Sinddan yoqut, olmos, Xitoydan atlas, choy va boshqa mollar, o'zga mamlakatlardan oltin va kumush olib kelinardi. Amir Temur 35 yil davomida yilni boshqardi. Hindiston va Xitoydan Qora dengizga qadar, Orol dengizidan Fors qo'lting'iga qadar bo'lgan g'oyat katta hududni qamrab olgan ulkan sultanatni vujudga keltirdi. U nafaqat Movarounnahr ba Turkistonni obod qildi, balki bo'ysundirilgan mamlakatlarning shaharlarini ham qayta qurdirdi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Tarixdan hikoyalari. 8-sinf darsligi. Toshkent. 2017-yil.
2. Temur tuzuklari. Amir Temur. Toshkent. 2018-yil.



BUXORO XONLIGINI TASHKIL TOPISHI

Ro'ziyeva Komila Maxsutovna
Navoiy viloyati Qiziltepa tumani 11-maktabi
Tarix fani o'qituvchisi
Telefon: +998 91 308 92 83

Annotatsiya: Ushbu maqolada Buxoro xonligini tashkil topishi, Buxoro taxtida hukmronlik qilgan xonlar, Buxoroning poytaxt sifatida rivojlanganligi, qo'shhokimiyatchilikka yuz tutganligi haqida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: Buxoro xonligi, Shayboniyxon, qo'shhokimiyatchilik, xonlar, hukmronlik, Mirarab madrasasi, safaviylar, hokimiyat.

Shayboniyxon halok bo'lgach, uning o'rniiga amakisi Ko'chkunchixon taxtga o'tirdi. Biroq 1522-yilda Bobur Mirzo Samarqandni uchinchi marta egallaganida shayboniylar vaqtinchalik hokimiyatdan mahrum bo'lib qoldilar. 1512-yil 28-apreldagi jangda shayboniylar Bobur Mirzo bilan uning ittifoqchisi safaviylar qo'shinini tormor qilib, Samarqand taxtini qayta qo'lga kiritdilar. Ko'chkunchixon 1530-yilgacha hukmronlik qildi.

Ko'chkunchixondan so'ng taxtga o'g'li Abu Said (1530-1533) o'tirdi. Undan keyin esa hukmdorlik Shayboniyxonning ukasi Mahmud Sultonning o'g'li Ubaydulloxon (1533-1540) qo'liga o'tdi. U 1533-yilda xonlik poytaxtini Samarqanddan Buxoroga ko'chirdi. Shu tariqa, Shayboniylar davlati Buxoro xonligi deb atala boshladi. Ubaydulloxon Buxoroga otameros mulk deb qarar edi. Chunki Shayboniyxon hayotligidayoq Buxoro hokimligini ukasi Mahmud Sultonga bergen edi. Shu tariqa, shayboniylarning Movarounnahrda tashkil etgan davlatlari endilikda Buxoro xonligi deb ataladigan bo'ldi.

Ubaydulloxonning tariximizdag'i xizmatlari katta. Avvalo, u Ismoil Safaviy qo'shining hujumlarini bartaraf etib, Movarounnahrni ularning harbiy-siyosiy tazyiqlaridan saqlab qoldi. Ubaydulloxon safaviylarga qarshi kurashda o'zining ma'naviy ilhomchisi Mir arab taxallusi bilan mashhur bo'lgan din peshvosi Abdulla Sabroniy tomonidan qo'llab-quvvatlandi. U Ubaydulloxonning do'sti ham edi. Ubaydulloxon safaviylar ustidan erishgan g'alabasi tufayli Vatan mustaqilligini, xalq erkini va din -u diyonatini, or-nomusini saqlab qoldi. Ubaydulloxon bu g'alabani Mir Arabga bag'ishladi va 1533-1536-yillarda Buxoroda uning nomi bilan mashhur madrasa qurdirdi. Mir Arab madrasasi hali-hamon ilm-ma'rifat o'chog'i bo'lib qolayotir.

Tarixchi Hofiz Tanish al-Buxoriy bekorga "uning davlati va xalofati zamonida Movarounnahr, ayniqsa, Buxoro viloyati gullab-yashnadi", deb yozmagan edi. Ubaydulloxon hukmronligi davrida Buxoroning poytaxt sifatida nufuzi har tomonlama o'sdi.

Ubaydulloxon o'z davlatining chegarasini Shayboniyxon davridagi sarhadlarga qayta tiklashga harakat qildi. U Hirotni ishg'ol etgan Eron qo'shnini bir necha marta mag'lubiyatga uchratgan edi. Ayni paytda, u mamlakat ichkarisidagi siyosiy tarqoqlikka barham berdi. Ko'chkinchixonning o'g'li Abdullaxonning qisqa hukmronligidan so'ng Movarounnahrda qo'shhokimiyatchilik, ya'ni bir vaqtning o'zida ikki hukmdor hokimiyati o'rnatildi.

Ulardan biri – Ubaydulloxonning o'g'li Abdulaziz Buxoroda ikkinchisi Ko'chkinchixonning yana bir o'g'li Abdulatifxon Samarqandda hukmronlik qila boshladilar. Biroq ularning hokimiyati mustahkam emas edi. Mamlakat amalda bir nechta mustaqil qismlarga bo'linib ketdi. Chunonchi, Balx va Badaxshonda Pirmuhammadxon I, Toshkent va Turkistonda Navro'z Ahmadxon, Karmana va Miyonqolda Iskandarxon mustaqil bo'lib oldilar.

Mamlakatda ro'y bergen siyosiy tanglikdan Tashkent va Turkiston hukmdori, Suyunchxo'janing o'g'li Navro'z Ahmadxon foydalanib qolishga qaror qildi. Samarqand hukmdori, amakivachchasi Abdullatifxon bilan ittifoq tuzib 1540-yilda Abdulatifxon vafot etgach, Samarqand taxtini egalladi. O'z nomidan tanga pul zarb ettirdi. Movarounnahrning ko'p shaharlarida uning nomi xutbaga qo'shib o'qildi.

Biroq Karmana va Miyonqol hukmdori va Iskandarxon va uning o'g'li Abdullalar Navro'z Ahmadxonga itoat etishni istamadilar. Bunga qarshi Navro'z Axmadxon Miyonqolga yurish boshladi.

Foydalilaniladigan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. Toshkent. 2000-yil.
2. O'zbekistonning yangi tarixi. 1-kitob. Turkiston chor Rossiysi mustamlakachiligi davrida. Toshkent. 2000-yil.



TARIX DARSALARIDA ILG'OR TA'LIMNING AHAMIYATI

Ibodullayeva Shaxnoza Fazliddinovna
Navoiy viloyati, Qiziltepa tumani
15-umumiy o'rta ta'lim maktabi
tarix fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarix darslarida ilg'or ta'limning ahamiyati xususida so'z boradi.

Kalit so'zlar: tarix, “Raqamlar tilga kirganda”, mafkuraviy tazyiq, ajdodlar...

Xalqimizning madaniy qadriyatлari, ma'naviy merosi ming yillar mobaynida Sharq xalqlari uchun qudratli ma'naviyat manbai bo'lib xizmat qilib kelgan. Uzoq vaqt mobaynida davom etgan mafkuraviy tazyiqqa qaramay, O'zbekiston xalqi avloddan-avlodga o'tib kelgan tarixiy va madaniy qadriyatlarni hamda o'ziga xos an'analarini saqlab qolishga muvaffaq bo'lди.

O'quvchilarga tarix fanini o'rgatish jarayonida xalqimizning, jonajon o'lkamizning tarixi haqida ma'lumot berish va bu orqali ular tarbiyasida o'zlikni anglash, milliy iftixorni tiklash, ularning ongi va shuurida globallashuvning salbiy tomonlariga qarshi turishni o'zida mujassam etgan immunitetni mustahamlash asosiy vazifa bo'lib hisoblanadi. Ushbu vazifani amalga oshirishda;

– buyuk ajdodlarmizning ishlari va jasoratlaridan axloqiy tarbiya va ibrat manbai sifatida foydalanish;

– o'quvchilarga insoniyatning eng qadimgi davrlaridan bugungi kunga qadar ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanish bosqichlari sabablarini tarixiy voqeа-hodisalar asosida o'rgatish;

– tarixiy voqealar asosida voqealarning sababi, bahonasi, oqibatini tahlil qila olish;

– Tarixiy voqealar ketma-ketligini tushuntirish, bir voqeа ikkinchisiga, ikkinchisi uchinchisiga sabab bo'lishini, jamiyat doimo rivojlanishda ekanligini, uning markazida esa doimo inson omili turishini idrok etish;

– o'quvchilarni tarixiy voqealarni analiz (voqealarni mayda tafsilotlarga bo'lish), sintez (mayda voqealarni umumlashtirish), fil'tr (asosiyalarini ajratib olish) yo'li bilan tahlil qilishga o'rgatish;

– o'quvchilarda o'zlikni anglash, umuminsoniy va milliy qadriyatlarga hurmat hissini shakllashtirish;

– O'quvchilarga tarixiy voqeа va hodisalar asosida “Tarix – xalq ma'naviyatining asosi” ekanligini singdirish.

– O'quvchilarni ilm-fan kishilarning hayotiy ehtiyojlarini qondirish zaruratidan paydo bo'lganligini tarixiy dalillar asosida tushunishlariga erishish;

– O'quvchilarni tarixni o'qitish orqali xalqni nomi bilan emas, balki u yaratgan madaniyat, ma'naviyat orqali tanilishini anglashga yo'naltirish nazarda tutildi.

The diagram shows a flow from a question to a reflection process and finally to a conclusion.

“TANQIDIY TAFAKKUR” METODI

Qo'yilgan masala yoki muammo yuzasidan o'z fikrini bayon qilish, o'zgalarining fikrlarini tanqidiy qayta idrok etish, o'z nuqtai nazarini asoslab berish va saqlab qolish imkoniyatiga ega bo'lishiga asoslangan.

Masalan, odob-axloq qoidalariga amal qilish kerakmi? Qadriyatlarga hamma riyo qilishi kerakmi? Va shunga o'xhash masalalar.

Bu narsa o'qituvchiga o'quvchilarning tinglash va muloqot qilish ko'nikmalarini, turli nuqtai nazaridan tushunish malakasini rivojlantrish, baxsli masalalarni hal qilish, taxliiy mushoxada yuritish va fikrlash layoqatini oshirish, ularning o'z fikrini shakllantirish mahoratini mustahamlash imkoniyatini beradi.

O'quvchilarni oldiga muammoli topshiriq yoki chalkash masala qo'yiladi va quyidagi savollardan foydalanish tavsiya etiladi:

- Nima deb o'ylaysiz?
- Fikringiz qanaqa?
- Sizingcha qanday?
- Nega bunday deb o'ylaysiz?
- Nimalar asosida bunday xulosaga keldingiz?



“Республика Узбекистан
Министерство образования и науки

Tizzama-tizza o'yin metodi

- O'yin sharti shundan iboratki,
- Bu o'yina o'quvchilarga yashirin holda nomlar ko'rsatiladi va ta'riflar aytiladi, o'quvchi qaysi nom ekanligini topadi.

YUNONISTON

Interfaol usuldagi o'quv jarayonida yakka tartibda, juft bo'lib ishslash, guruhlarda ishslash, izlanishga asoslangan loyihalar, rolli o'yinlar, hujjatlar bilan ishslash, ijodiy ishslash kabi metodlardan foydalanish mumkin. Bu, ayniqsa, muayyan iqtidor sohibi bo'lgan o'quvchilarning qirralarini yaxshiroq ochishga uning ijodkorligini rivojlantirishga imkon beradi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Ishmuxamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. –T., 2008. -72–75-b.
2. Xalilova N.I. Differensial psixologiya fanidan ma'ruza matni. –T., 2010-y



FLORIO BENEVENI ELCHILIGI TO'G'RISIDA MANBALAR

Qurbanboyeva Zaynura

Shovot tumani 37-sont maktabi o'qituvchisi
j_jaxongir_19_92@bk.ru

Annotatsiya: Hozirda foydalanilayotgan tarix fani darsliklarida “O‘zbek xonliklari va Rossiya imperiyasi munosabatlari” mavzusida Rossiya imperiyasi tomonidan yuborilgan elchi Florio Beneveni haqida so‘z yuritilgan lekin darsliklarda bu muloqotlar haqida ma’lumotlar kamligi uchun ushbu maqola bu boradagi ma’lumotlarni o‘quvchilarga to‘liq yetkazib berishda foydasi tegsa ayni muddao.

Kalit so‘zlar: Imperiya, elchi, xonlik, xon, podshoh,

1717-yili Buxoro xoni Abulfayzxon Peterburgga o‘z elchisini yuboradi. Elchi Qolibek Abulfayzxonning Pyotr I ga shvedlar ustidan qozonilgan g‘alabasi munosabati bilan yozgan qutlov maktubini topshiradi. Abulfayzxon o‘z maktubida, ayni paytda, Buxoroga Rossiya elchisini yuborilishini so‘ragan edi. Bunga javoban Rossiya hukumati 1721-yil Florio Benevenini elchi qilib jo‘natadi. Florio Beneveni uchun tuzilgan qo’llanmada elchiga quyidagi topshiriqlar berilgan:

1. Florio Beneveni Buxoro xoni huzuriga podsho hazratlarining elchisi sifatida boradi. Shu haqda uning qo‘liga podsho hazratlarining Buxoro xoni nomiga yozilgan maktubi topshirildi.

2. Florio Beneveni Abulfayzxonning elchisiga yo‘lda o‘zini tanitmadi. Ayniqsa Buxoro xonligi hududlaridan o‘tayotganda, hamma yerlarni, xususan bandargohlar, qal’alar va shaharlarni diqqat bilan ko‘zdan kechirib boradi.

3. Buxoroda bo‘lganida, qanday bo‘lmasin, Buxoro xonligi qal’alari, qo‘smini, otliq va piyoda askarlarining umumiyligi soni, ularning quroq-aslahalari va qancha zambaragi borligini, qo‘sminidagi umumiyligi ahvol, qal’arning qo‘riqlanishini bilib olish.

4. Abulfayzxonning Eron shohi va Xiva xonlari bilan munosabati qay darajada ekanligini aniqlash. Xiva xoniga qarshi harbiy ittifoq tuzish taklif etish.

5. Buxoroda qanday tovarlar ishlab chiqariladi va ular qayerlarga olib borib sotiladi? Buxoroga dengiz yoki quruqlikdan qaysi yo‘l bilan borish mumkin? Buxoroda qaysi rus tovarlariga ehtiyoj katta? Rossiya bilan savdo-sotiqni kuchaytirish mumkinmi?

6. Amudaryoda oltin bormi? Buxoro xonini qo‘riqlash uchun necha yuz gvardiyachi, yoki qo‘smin yuborilsa, xon bunga rozi bo‘ladimi? Mana shu masalalarni aniqlash

Rossiya elchiligi Buxoroda uch yarim yil, 1721 yil 6 noyabridan to 1725 yil 8 apreli gacha turdi va podshoning yuqorida topshiriqlari bo‘yicha qimmatli ma’lumotlar to‘pladi. Ularning eng muhimlarini quyida keltirildi:

„Shahar (qal’asi) yarim vayron bo‘lgan xandaq bilan o‘ralgan. Shaharda loydan qurilgan 15 ming hovli-joy mavjud.

Juda kam o‘zbekda miltiq bor. Ular asosan o‘q-yoy va nayza bilan qurollangan. Shaharda hammasi bo‘lib 15 nafar zambarak bor. Lekin, ularning faqat bittasidan bayram kunlarida otish mumkin”.

Mamlakatning yer osti va yer ustidagi boyliklari haqida turli vaqtlardajo‘natilgan ma’lumotnomalarda quyidagilarni o‘qiymiz:

„Amudaryoning bosh qismida oltin yo‘q. Lekin unga Ko‘kcha daryosi kelib qo‘silgan joyda qumloq yerlarda oltin bor, bundan tashqari, oltin, kumush, achchiqtosh, qo‘rg‘oshin, temir konlari Samarqand va Buxoroda ham bor”.

F.Beneveni Buxoroning XVIII asrning birinchi choragidagi ichki va xalqaro ahvoli haqida o‘ta muhim ma’lumotlar to‘plagan. „Beklarning o‘zboshimchaligi tufayli butun mamlakat isyon va tug‘yonlar iskanjasida qolgan.

Xususan poytaxt shahar to‘s-to‘palonlar va isyonlar dastidan og‘ir ahvolda qolgan. Ayniqsa, Ibrohimbiy isyonini tufayli Abulfayzxon shaharni tashlab chiqishga majbur bo‘lgan. Shahar oziq-ovqat va yem-xashak xususida shu qadar g‘arib bo‘lib qoldiki, ko‘p odam o‘lib ketdi, mol-ko‘yi va ot-tuyalari qirilib ketdi”. Samarqand bekligining tashkil topishi haqida F.Benevenining 1723-yil 4-mart kuni yuborgan maxfiy axborotida bunday deyilgan: „...sobiq (Buxoro) otalig‘i Ibrohimbiy Samarqand ustiga yurdi va uni egalladi. Shundan keyin boshqalar bilan qo‘silib, xon avlodidan bo‘lgan Sharg‘ozixonni Rajabxon nomi bilan Samarqand taxtiga o‘tqazdi va uni o‘ziga kuyov



qilib oldi. O‘zi esa otaliq lavozimini egalladi”.

XVIII asr boshlaridagi Xiva –Buxoro munosabatlari haqida F.Benevenining 1721- yil 25 -may kuni Moskvaga yo‘llagan xabarida masalan, quyidagilarni o‘qiymiz: „Xiva xoni haqiqatan ham buxoroliklar bilan urushmoqchi. Shunga tayyorgarlik ko‘rmoqda. Lekin, katta beklari bunga yo‘l bermay turibdilar. Ular hatto Sherg‘ozixonni taxtdan tushirib, 15 yildan beri Buxoro xoni huzurida kun kechirayotgan Musaxonni taxtga o‘tzizmoqchi bo‘lmoqdalar. Shu haqda Xivaning katta beklari Buxoro xoni bilan bordi-keldi qilib turibdilar.F.Beneveni Xivaning o‘zi ham notinch bo‘lib, ikki yirik arbob Sherg‘ozixon bilan Temur sulton o‘rtasida hokimiyat uchun kurash borayotgani va Rossiya Temur sultonni qo‘llab-quvvatlasa foydali bo‘lishini aytdi.,„Agar Sherg‘ozixon yo‘qotilsa,-deb yozadi F.Beneveni,-bu yerda tinchlik o‘rnatalidi, hamma yo‘llar ochiq bo‘ladi “.

F.Beneveni to‘plagan ma’lumotlar Rossiya hukumati, uning tashqi siyosati uchun kelajakda qo‘l keldi.

Foydalilanilgan adabiyotlar

1. Q.Usmonov,U.Jo‘rayev- O’zbekiston tarixi 8-sinf darslik .Toshkent-2014.
2. Z.Raxmonqulov,M.Ismoilov- „ Manbashunoslik va Tarixshunoslik” fanidan o‘quv qo‘llanma .Urganch-2012.
3. B.A.Ahmedov -,„O’zbekiston xalqlari tarixi manbalari”.-Toshkent. O’qituvchi .1991.



TARIX DARSLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA «MINI-LEKSIYA» METODIDAN FOYDALANISH

Saydrahamonova Matluba Mavlyanovna

Toshkent viloyati Ohangaron shahri

2-IDUM tarix fani öqituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarix darslarini samaradorligini oshirish uchun zamonaviy interfaol metodlardan foydalanish, ushbu metodlarni qo'llash hamda ushbu jarayon haqida fikr mulohazalar bildiriladi.

Kalit so'zlar: Interfaol metodlar, «Mini-leksiya», birinchi bosqich, ikkinchi bosqich, anglash, tushunish.

Interfaol metodlar – shunday metodlarki, u o'quvchi-yoshlarning o'zaro muloqot va o'zaro ta'siridagi dars jarayonini amalga oshiruvchi usul. “Interaktiv” so'zi ingliz so'zidan olingan bo'lib “Interakt”, ya'ni “Inter” - bu “o'zaro”, “akt” - “harakat, ta'sir, faollik” ma'nolarini bildiradi. Tarix darslarini o'tishda quyidagi interfaol metodlardan foydalanishni dars samaradorligini ortishda ahamiyati katta. Jumladan: «*Mini-leksiya*». Mini-leksiya zamonaviy ta'limning effektiv usullaridan biri hisoblanadi. Amal qilish mexanizmi qo'yidagicha: o'qituvchi 10-20 minut ichida ma'ruba o'qiydi. O'quvchilar diqqat bilan qulq solishadi. Ma'ruba o'qib bo'lganidan so'ng, o'qituvchi o'quvchilarga 3-5 minut vaqt berib ma'ruzaning asosiy mazmunini tez shaklida konspekt qilishga imkon beradi. Konspekt tuzish jarayonida o'quvchilar noaniqliklarni bartaraf etish maqsadida o'qituvchiga yoki bir-birlariga savollar berishlari mumkin. «*Mini-leksiya*»ning 2-ko'rinishi - .bu usul yuqorida ko'rsatilgan strategiyaning boshqacha ko'rinishi hisoblanadi. Mazmuni quyidagicha: 10-20 minut davomida o'qituvchi ma'ruzani o'qiydi. O'quvchilar diqqat bilan qulq solib, qisqa konspekt yozib borishadi. Ma'ruba tugagandan keyin o'qituvchi o'quvchilarga 3-5 minut vaqt beradi va bu vaqt ichida o'quvchilar, juftliklarga bo'linib, bir-biri bilan konspektlarini almashib, o'qib chiqishadi va mulohazalari bilan o'rtoqlashadi. Noaniqliklar, xatolar tuzatiladi. O'qituvchiga ham savol berishlari mumkin. *Jadallashtirilgan ma'ruba*. Ma'ruba jarayonida o'qituvchi ma'ruzaning an'anaviy shaklini, o'quvchilarni faol o'qitish va tanqidiy fikrlashga qiziqtirish uchun o'zgartiradi. Natijada jadallashtirilgan ma'ruzaning shakli vujudga keladi.

Tayyorgarlik bosqichi (chaqiriq). O'qituvchi mashg'ulot boshlanishida tinglovchilar fikrini o'tiladigan materialga to'playdigan topshirik beradi. 3-5 daqiqa davomida mavzu bo'yicha o'quvchilarga oldindan ma'lum bo'lgan bilimlarni tahlil qilib, ularni ro'yxat ko'rinishida yozishni taklif qiladi. Muddat o'tgandan keyin o'qituvchi o'quvchilardan o'z g'oyalari bilan o'rtog'lashishni so'raydi va ularni ixcham shaklda doskaga yozib chiqadi. O'quvchilar yordamida to'plangan g'oyalarni kategoriyalarga bo'lish mumkin. Shunday so'ng, o'qituvchi 10-20 daqiqa davomida ma'ruzaning 1-qismini o'qiydi (anglash). Ma'ruzaning birinchi qismidan so'ng, o'qituvchi o'quvchilarga o'zlarining g'oyalarni ma'ruzadan eshitganlari bilan taqqoslashni so'raydi (fikrlash).

Keyingi tayyorgarlik faoliyati (chaqiriq). Endi o'qituvchi o'quvchilarga juftlikda ishlab, ularning oldingi bilimlarini aniqlash va bu bilan ma'ruzaning keyingi qismini eshitish maqsadini belgilovchi qisqa topshiriqlar beradi. Ma'ruzaning davomi - anglash va fikrlashni o'z ichiga olgan sikl qaytarish. Yakuniy topshiriq (fikrlash). Bu topshiriq turli shakllarda berilishi mumkin. Masalan: 10 daqiqli esse; 5 daqiqli esse; ma'ruzada keltirilgan eng muhim jihatlarga tegishli ochiq savolga javob berishlarini so'rash.

Tayanch so'zlar bo'yicha chaqiriq. U yoki bu mavzu bo'yicha bilimlarni tiklash usullaridan biri «Tayanch» so'zlar bo'yicha chaqiriq pedagogik strategiya hisoblanadi. Uni amalga oshirish uchun o'quvchilarga 3-5 tayanch so'zlar beriladi. O'quvchilar shu so'zlar o'rtasidagi mantiqiy bog'lanishning o'z variantlarini taklif etishadi. Bu mantiqiy bog'lanish 3 daqiqli esseda yoritilishi mumkin. O'ylang (juftlikda ishlang), fikr almashing. Bu ancha jadallik bilan bajariladigan birgalikdagi faoliyat bo'lib, o'quvchilarni axborot ustida fikrlashga va o'z fikrlarini sheriklar yordamida - aniq shaklga kiritishga yo'naltiradi. O'qituvchi odatda «ochiq», uzoq fikrlashga undaydigan savolni oldindan tayyorlab qo'yadi va ayrim o'quvchilardan qisqa javoblar yozishni so'raydi. So'ngra, o'quvchilar juftliklarga bo'linib, bir-birlari bilan o'z mulohazalarini o'rtoqlashadilar va ikkala fikrni o'z ichiga olgan yagona javobni tayyorlashga urinadilar va nihoyat,



o`qituvchi bir necha juftlikdan (vaqt yetishiga bog`liq holda) o`ttiz sekund ichida auditoriyaga o`z ishini qisqacha yakunini bayon etib berishni so`raydi.

Xulosa o`rnida aytishimiz mumkinki, mактабга ilk qadam qo`ygan bolada qanday hayajon, sevinch va notanish vaziyatlar kuzatilganidek, yangi kelgan yosh o`qituvchi uchun ham shunday holatlar kuzatiladi. Bundan ko`rinib turibdiki yosh pedagoglarning mактабда yaxshi ishlab ketishlari uchun oliygohda oлган bilimlari yetarli bo`lmayapdi. Hind faylasuflari aytganidek, tajriba har qanday ish unumdarligini oshiradi. Yosh pedagoglar yetarli tajribani yillar davomida olishlari mumkindir, ammo bugungi kundagi globollashuv jarayoni insonlarda tezlik bilan o`zgarishlarini taqozo etmoqda. Shunday ekan, o`qituvchi mактабда ish boshlashining dastlabki kunlaridan boshlab tajribali o`qituvchilardek darsga tayyorgarlik ko`rishi, dars jarayonida o`zini erkin tutishi, o`quvchilar bilan samarali muloqotga kira olishi va o`quv jarayonida pedagogik texnologiyalardan unumli foydalana olishi kerak bo`ladi. Shunday ekan interfaol metodlardan keng foydalangan o`qituvchilarda dars unumdarligini oshirish imkoniyati kengroq bo`ladi.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. J.Yo`ldoshev, F.Yo`ldasheva, G.Yo`ldosheva. Interfaol ta`lim – sifat kafolati. 2008 y. Toshkent 12 bet.
2. Ilalov I.N. Tarixiy tadqiqot metodlari va metodologiyasi. Ma`ruzalar matni. Samarqand. 2009.
5. N.Saidahmedov “Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya” T-2002 yil.



TARIX DARSLARIDA INTERAKTIV TA'LIM METODLARIDAN FOYDALANISH

Saydraphanova Matluba Mavlyanovna

Toshkent viloyati Ohangaron shahri

2-IDUM tarix fani oqituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarix darslarini interaktiv ta'lif metodlaridan foydalanib tashkil etishning samaralari haqida fikr mulohazalar bildiriladi.

Kalit so'zlar: Yangicha fikrlash, I. Karimov, pedagogik texnologiyalar, interaktiv o'qitish, interfaol metod, pedagogik mahorat.

Mustaqillik yillarda ta'lif tizimiga ko'plab tushuncha va atamalar, yangicha qarashlar kirib keldi. Bugungi kunda ta'lifning zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkillashtirish va takomillashtirish masalalari dolzarb bo'lib qolmoqda. Bizga ma'lumki, pedagogik texnologiyalarning asosini interfaol metodlarga asoslangan yondashuvlar tashkil etadi. Ta'lif tizimida, ta'lif jarayonida interfaol metodlardan foydalanish – ta'lif samaradorligini oshiradigan innovasion usuldir. Yoshlarni yangicha ishlashga va tafakkur yuritishga o'rgatish davr talabi ekanligi birinchi Prezidentimiz tomonidan asoslab berilgan edi.

Zamonaviy metodlar o'qituvchi bilan o'quvchining faol munosabati, bir-birini to'liq tushuntirishga asoslangandir. Ushbu metodlar orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatları rivojlantirilib, ularda erkin fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish, hissiyotlarni boshqara olish, tanqidiy va ijodiy fikr yuritishning rivojlanishiga zamin tayyorlanadi. Interfaol usullarning asosiy maqsad va vazifalari quyidagilardan iborat:

1. O'quvchilarni mustaqil, ijodiy, tanqidiy, mantiqiy fikrlashga o'rgatish;
2. Muammoli vaziyatlari amaliy va hayotiy topshiriqlarni bajarish;
3. Fikrlashga majbur etish;
4. Faollashtirish;
5. O'quvchilarni tashkilotchilik va yo'naltiruvchanlikka undash;

Muallimning interaktiv o'qitish jarayonidagi ishining samarasi bir qancha shartlarga bog'liq:

Birinchi – o'quvchi imkoniyatlarining berilgan texnologiya (o'yin, trening, mashq) maqsad va vazifalariga mutanosibligi. Tanlangan texnologiyaning maqsadiga qarab muallim u yoki bu vazifani bajaradi: tashkilotchi-sardor, kommunikator yoki kelishmovchiliklarni bartaraf qiluvchi, fasilitator.

Ikkinci – guruh ishtirokidagi o'zaro munosabatlarni hal etishdagi muallimning professional tajribasi. Buning uchun u dialog hamda multilog, ya'ni turkumlashgan dialog san'atini egallagan bo'lishi zarur. Dialog ko'rinishidagi muloqot psixologiyada ahamiyatli hisoblanadi, chunki an'anaviy "sub'ekt-ob'ekt" munosabatiga zid ravishda "sub'ekt-sub'ekt" munosabatlarini ifodalaydi. Dialog doimo har xil fikrlar va ularning ko'rinishlarini, shuningdek, barcha interaktiv o'zaro aloqa qatnashchilarining qo'yilgan muammoni birgalikda muhokama qilishini va yechimini topishini nazarda tutadi. Qatnashchilarning faolligi o'quvchilarning shaxsiyatiga emas, balki o'zaro muloqotga, qo'yilgan vazifaga yo'naltiriladi. Dialogdagina qatnashchilar qo'yilgan masalaga turli nuqtai nazarlar orqali yondashish bilan bir birini o'zaro boyitishadi. Amaliy yoki taqlidiy o'yin yoki vaziyatlar analizi usulini kommunikativ aspektlarning modellashtirilishi jarayoni sifatida ko'rib chiqadigan bo'sak, u quyidagi xususiyatlar tufayli bor o'quv-rivojlanturuvchi jarayonga yangi sifat olib kiradi:

- o'rgatuvchi o'yin modelidagi sheriklar bilan professional faoliyatning turli funksional bo'g'inalridagi amaliy o'zaro munosabatlar strukturasini tiklaq;

- ta'lif olayotgan rahbar va mutaxassislarni professional va kommunikativ omilkorlik va uni amaliy ko'llanishi extiyojini qondirishga yaqinlashtirmoq.

- o'rgatuvchi va rivojlanturuvchi ta'sirlar majmui;

Yuqorida xamma sanab o'tilganlar quyidagilarga imkoniyat yaratadi:

1)mutaxassislarda professional va kommunikativ omilkorlik, uning dinamikasi va real faoliyatdagi o'rni haqida yaxlit tasavvur yaratish;

2)professional psixologik nazariy va amaliy fikrlashni rivojlantirish;

3)bilim ortirish motivasiyasini tashkil etish, shaxsiy psixologik ko'lanma va motivasiyaga



sharoit yaratish;

Interaktiv mashg`ulotlar o`tkazilishi jarayonida muallim tinglovchilarning individual uslublari, ma`naviy-axloqiy rivojlanishi va xarakterologik xususiyatlarining saviyasi haqida ma`lumot oladi. Bu unga kerak bo`lganda tinglovchilarni psixologik-pedagogik korreksiyalash va ularga psixologik yordam berishni amalga oshirishga imkoniyat tug`diradi. Shunday qilib, tinglovchilar interaktiv texnologiyalar yordamida rahbar va mutaxassislar real professional faoliyatiga mansub bo`lgan sotsial-psixologik va tipik boshqaruv muammolari yechimlarini topishga jalb qilinadilar.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, o`quvchilar hamkorlikda ishslashda mavzu mazmunini bilish, o`zlashtirishda o`zlarining shaxsiy hissasini qo`shish imkoniyatiga ega bo`ladilar. O`zaro bilimlar, g`oyalar, fikrlarni almashish jarayoni sodir bo`ladi. Bunday holatlar o`zaro samimiylilikni taminlaydi, yangi bilimlar olish, o`zlashtirishga havas ortadi, shu jarayonda bir-birlarini qo`llab-quvvatlash, o`zaro do`stona munosabatlar vujudga keladi. Buning tarbiyaviy ahamiyati katta. Demak, interfaol darslarni tashkil qilishda o`quv jarayonida yakka tartibda va juft bo`lib ishslash, guruhlarda ishslash, izlanishga asoslangan loyihibar, rolli o`yinlar, axborot manbalari bilan ishslash, ijodiy ishslashdan foydalanish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I.A.Karimov “Barkamol avlod yili dasturi” T. 2010 y
2. Ilalov I.N. Tarixiy tadqiqot metodlari va metodologiyasi. Ma’ruzalar matni. Samarkand. 2009.
3. N.Saidahmedov “Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya” T-2002 yil.

“ЎЗБЕКИСТОН ОЛИМЛАРИ ВА ЁШЛАРИНИНГ ИННОВАЦИОН ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАРИ”

(3-қисм)

**Масъул мұхаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусаҳҳих: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев**

Эълон қилиш муддати: 31.12.2021

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000